

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

NURIDDIN BEGALIYEV

**O‘ZBEK TILI
(ma’ruzalar matni)**

Samarqand-2006

Begaliyev N. O‘ZBEK TILI. *Ma’ruzalar matni. –Samarqand: SamDCHTI, 2006. 72 bet.*

Ma’ruzalar matnida o‘zbek tili fonetikasi, grafikasi, orfoepiyasi va orfografiyasining tamoyillari hamda leksikologiyasi, frazeologiyasi va leksikografiyasi haqida ma’lumot berilgan.

Mazkur ma’ruzalar matni chet tili fakultetlari talabalari, tayyorlov kurslari tinglovchilari hamda o‘zbek tili mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir: *filologiya fanlari doktori,
professor N.Q.Turniyozov*

Taqrizchilar: *filologiya fanlari nomzodi,
dotsent A.G’afforov.
filologiya fanlari nomzodi
X.Z.Xayrullayev.*

Birinchi ma'ruza

«O'zbek tili» fani, uning o'rganish ob'ekti va bo'limlari

Reja:

1. O'zbek tili – o'zbek xalqining milliy adabiy tili, fan va texnika tili, san'at va adabiyot tili, madaniyat va ma'rifat tili, matbuot va ommaviy axborot tili, ta'lim va tarbiya tili, mustaqil O'zbekiston Respublikasining Davlat tili.

2. «O'zbek tili» fanining bo'limlari: fonetika va fonologiya, grafika va orfoepiya, orfografiya, leksikologiya va frazeologiya, leksikografiya, morfemika, so'z yasalishi, grammatika, uslubiyat.

O'zbek tili o'zbek millatining tili, o'zbek milliy madaniyatining ko'zgusidir.

O'zbek tili oltoy tillar oilasining turkiy guruhiga mansub bo'lib, u chuvash, gagauz, bolqon turklari, ozarbayjon, turk, qaraim, qrim tatarlari, turkman, qozon tatarlari, truxmen, boshqird, qorachoy-bolqar, qo'miq, no'g'oy, qoraqalpoq, qozoq, uyg'ur, tuva, tofalar, yoqut, xakas, kamasin, shor, cho'lim, qirg'iz va boshqa tillar bilan fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari jihatidan bir qator umumiylikka ega. Misol tariqasida o'zbek va tuva tillarida leksik birliklaridagi quyidagi o'xshash holatlarini ko'rsatish mumkin: kurt (tuva)-qurt (o'zbek), adyg (tuva)-ayiq (o'zbek), uzun(tuva)-uzun (o'zbek), chylan(tuva)- ilon(o'zbek), inek(tuva)-inak (o'zbek dial.), qara-dorug(tuva)-qora to'riq(o'zbek) va boshqalar. Shuningdek, turkiy tillarning har biri boshqalaridan o'ziga xos muhim fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbek tili o'zbek xalqining tarixiy hayoti bilan bog'liq holda rivojlanib, taraqqiy etib, boyib keldi. Tilning urug' tilidan milliy tilgacha taraqqiyotining turli bosqichlarida uning vazifasi o'zgarib, kengayib boradi. Jumladan, o'zbek tili ham o'z tarixi davomida bir necha davrni boshidan kechirdi. Tilshunos olimlar o'zbek adabiy tili haqida fikr yuritganlarida, uning o'zbek tili dialektlari, oddiy so'zlashuv tili va jargonlaridan tamoman farq qilishini, mazkur xalq vakillari uchun umumiy ekanligini ko'rsatishib, adabiy til umumxalq tilining ishlangan, so'z san'atkorlari tomonidan sayqallashtirilgan va ma'lum bir me'yorga solingan shakli ekanligini ta'kidlaydilar.

Hozirgi o'zbek adabiy tili o'z tarixi davomida katta bir davrni bosib o'tdi. Olimlar o'zbek adabiy tilining tarixini uch davrga bo'lishadi. Bular:

I. Qadimgi turkiy adabiy til.

II. Eski o'zbek adabiy tili.

III. Hozirgi o'zbek adabiy tili

Qadimgi turkiy adabiy til VII -XII asrlarda yaratilgan yozma obidalar tilini o'z ichiga olib, bu umumturk adabiy tili sifatida qaraladi. Bu davrda Urhun-Yenisey yodgorliklari, "Irq bitiq", "Oltin yoruq" singarilar bilan birga, nodir badiiy asarlar-Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq", Mahmud Qoshg'ariyning qalamiga mansub "Devoni lug'otit turk"

kabilar ham yaratildi. Bu yodgorliklar turkiy halqlarning mushtarak asarlari bo'lishi bilan birga, o'zbek millatining faxri ham hisoblanadi. Bu davr adabiy tili faqat o'zbeklarning adabiy tili bo'lmay, o'sha davrda yashagan barcha turkiy xalqlarning umumiy adabiy tili bo'lgan. Shuning uchun ham bu adabiy til qadimgi turkiy adabiy til deb ataladi va unga umumturkiy adabiy til sifatida qaraladi.

Eski o'zbek adabiy tili XIII asrdan 1924-yilgacha, ya'ni O'zbekiston Respublikasi e'lon qilinganga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida Alisher Navoiyning xizmatlari katta. "So'z mulkining sultoni" (Maqsud Shayxzoda) Alisher Navoiy o'zining asarlari bilan o'zbek adabiy tilini badiiy so'z nuqtai nazaridan jahon miqyosiga olib chiqdi. "Muhokamatul-lug'atayn" asari bilan eski o'zbek adabiy tilini, uning badiiy uslubiyatini nazariy asoslab, eski o'zbek tilining o'sha davrdagi me'yorini va kelajagini ilmiy jihatdan belgilab berdi. Ona tilining o'z ichki imkoniyatlaridan keng foydalanish masalasini yoritib, adabiy tilni boshqarish haqidagi mulohazalarini bildirdi.

Eski o'zbek adabiy tili, asosan, XIII asrdayoq shakllanib ulgurgan edi. Chunki bu davr adabiy tili o'zining xalq tiliga yaqinligi bilan ajralib turadi. Haqiqatan, Lutfiy, Atoyi, Durbek, Xorazmiy asarlarining tili Alisher Navoiy asarlarining tiliga nisbatan hozirgi adabiy tilimiz va jonli xalq tiliga ancha yaqin. Buning asosiy sababi, avvalo, nomi tilga olingan shoirlarning ko'pchiligi asosiy aholisi ko'proq o'zbekcha gaplashgan joylarda yashaganlarida bo'lsa, ikkinchidan, Alisher Navoiyning arab-fors maktabi muhitida ta'lim-tarbiya olishi, shuning uchun bu muhit uning ijodiga o'z ta'sirini o'tkazishida edi.

Demak, eski o'zbek adabiy tili Navoiygacha ham shakllangan edi. Chunki bu til Markaziy Osiyoda ham, Xuroson va Afg'onistonda ham iste'molda faol qo'llangan. Lekin uning yaxlit adabiy til sifatida to'la shakllanishi va keng ko'lamda rivojlanishi Navoiy nomi bilan bog'liq. Bunga Navoiyning o'zbek tilida buyuk asarlar yaratganligi va uni o'z zamonasining yetuk tillari darajasiga ko'targanligi sabab bo'ldi. Xuddi shu ma'noda Alisher Navoiy eski o'zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi.

Alisher Navoiydan so'ng bir necha asrlar davomida eski o'zbek tili qoliplari asosan o'zgarmay qoldi. Biroq Shayboniy, Ubaydiy, Zahiriddin Bobur, Muhammad Solih, Nishotiy, Muhammad Xoksor singari shoirlar asarlari tili Navoiy asarlari tiliga nisbatan bir oz soddaligi va tushunarli ekanligi bilan farq qiladi. XIX asrning oxirlarida yashagan Muqimiy, Furqat, Maxmur va Avaz O'tarlarning asarlariga Navoiy tilining ta'siri buyuk shoir yaratgan maktabning qudrati katta bo'lganligini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan, Muqimiy va Furqatlarning tilida yangi so'z va iboralar, shakllar paydo bo'ldi, adabiy til me'yorlari xalq tili talaffuziga yaqinlasha boshladi. Chunki bu davrda eski o'zbek adabiy tili asosida yaratilishi kerak bo'lgan yangi adabiy tilning bazasi paydo bo'laboshlagan edi. Bu borada yangi davr ijodkorlarining xizmati katta.

Hozirgi o'zbek adabiy tili o'zbek millatining milliy adabiy tilidir. O'zbek milliy tili tarixan tarkib topgan ijtimoiy hodisa bo'lib, o'zbek millatiga xos hamma

til vositalarini, shu jumladan, barcha o'zbek shevalarini va dialektlarini ham birlashtiradi. Tilda bo'ladigan o'zgarishlar inqilobiy yo'l bilan emas, evolyutsion tarzda, asta-sekin yuz beradi. Bunda til leksikasining yangi so'zlar hisobiga boyib borishi bilan birga undagi ayrim so'zlarning iste'moldan chiqib ketishi jarayoni ham kuzatiladi.

O'tgan asrning 30-50 yillarida yangi o'zbek adabiy tili xalq tili asosida shakllandi. Uning lug'aviy tarkibi, grammatik qurilishida katta o'zgarishlar sodir bo'lib, xizmat qilish doirasi va uslubiy imkoniyatlari kengaydi. Eski adabiy til asosida qadimdan rivoj topgan badiiy uslub bilan bir qatorda ilmiy va publitsistik uslub hamda rasmiy ish uslubining juda ko'p turlari va tarmoqlari paydo bo'ldi. Adabiy tilda mavjud bo'lgan terminlar (atamalar) qatori juda ko'p yangi terminologiya ham yuzaga keldi. Adabiy tilning xalq tili bilan aloqasi kuchaydi. Natijada o'zbek tilining zamonaviy adabiy shakli yuzaga keldi.

O'zbek milliy tili hozirgi o'zbek millatiga mansub bo'lgan barcha kishilarning umumiy tilidir. Bu til o'zbek xalqining o'zaro aloqa quroli, shu xalqning hamma a'zolari uchun tushunarli bo'lgan umumiy tildir.

Milliy tilning shakllanishi millatning shakllanish jarayoni bilan bog'liqdir. O'zbek tili ham avval urug' tili, qabila tili va elat tili tarzida yashab rivojlanib keldi. Ma'lumki, millatlar kapitalistik munosabatlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq holda tashkil topa boshlaydi. Millatlarning tashkil topishida uning asosiy elementlari-yagona madaniyat, yagona hudud bilan birga yagona til birligi-milliy til ham shakllanadi. O'zbek millati XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida shakllanaboshladi. XX asr davomida o'zbek tili milliy til sifatida shakllanib, rivojlanishi jarayonida o'zbek xalqining yetuk tiliga aylandi.

Hozirgi o'zbek tili rivojlangan milliy adabiy tildir. O'zbek adabiy tilida yuz bergan o'zgarishlar haqida gap borar ekan, lingvistik va ekstralingvistik omillarni hisobga olish kerak. Tilning ichki tuzilishida bo'ladigan o'zgarishlar lingvistik (lisoniy) va uning vazifaviy rivojlanishi-ijtimoiy nuqtai nazardan ish ko'rish doirasining kengayib borishi bilan bog'liq bo'ladigan o'zgarishlar esa ekstralingvistik (nolisoniy) omillar hisoblanadi. Bular o'zaro bog'liq bo'lib, tilning vazifaviy rivojlanishi uning ichki tuzilishiga, ichki tuzilishida yuz beradigan o'zgarishlar esa uning vazifaviy rivojlanishiga ta'sir qiladi.

O'zbek tilining rivojlanishidagi ekstralingvistik omillarga o'zbek xalqining millat bo'lib shakllanganligi, yozuvning demokratlashtirilishi, madaniyatning yuksalishi, ilmiy-texnik yutuqlar, nashriyot ishlarining kengayishi, kino, radio, televideniyada olib borilayotgan eshittirishlar va ko'rsatuvlarning yuksalishi, o'zbek tilining maorif sohasidagi rolining oshib borayotganligi, tarjima jarayonining kuchayishi singarilar kiradi.

O'zbek milliy adabiy tilining rivojidagi lingvistik omillariga tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari, shuningdek, boshqa qardosh tillarning samarali ta'siri natijasidagi o'zgarishlar va boshqalar kiradi. Bu o'zgarishlar uning leksikasida, fonetik qurilishida, so'z yasash tizimi va grammatik qurilishida ko'zga tashlanadi. Adabiy til ko'proq yangi yasalgan va boshqa tillardan qabul qilingan so'zlar

hisobiga boyib bordi. Ijtimoiy hayot va madaniyatda yuz bergan o'zgarishlar o'zbek tilida o'z ifodasiga ega bo'lmagan juda ko'p yangi tushunchalarni keltirib chiqardi. Bular o'zbek tili leksikasining taraqqiyot yo'lini belgilab berdi. O'zbek tilining leksikasi tilning umumiy rivojlanish tendensiyasi, taraqqiyot qonuniyatlari asosida rivojlandi.

O'zbek adabiy tili leksikasi asosan quyidagi usullar vositasida rivojlandi:

1. O'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yangi so'zlar yaratish hisobiga. Yasama so'zlar tuzilishiga ko'ra sodda yoki qo'shma so'z bo'lib, turli tushunchalarni anglatadi: jangchi, quroldosh, limonzor, haydovchi, sinfdosh singari, shuningdek, -v(-ov), -chi, -chilik, -shunoslik, -kor kabi affikslar vositasida yasaladigan so'zlar ko'paydi.

Ichki imkoniyatlarga o'zbek tili dialektlari va shevalaridan so'z olish ham kiradi. Adabiy til leksikasida bo'lmagan so'zlar ayrim hollarda dialekt va shevalardan olinadi. Masalan: otar, qo'ton, yelvizak, simbag'az, murg'ak kabi.

O'zbek tili lug'at tarkibidagi juda ko'p so'zlarning ma'nosida semantik siljish ro'y berdi, ular yangi ma'nolarda qo'llana boshladi: iymon, domla, murabbiy, tarbiyachi kabi.

2. Boshqa tillardan so'z va iboralarni o'zlashtirish:

a) so'zlar to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtiriladi: biznes, prezident, broker, kosmos va boshqalar;

b) kalka usuli bilan o'zlashtiriladi: родильный дом – tug'ruqxona, отделение связи – aloqa bo'limi, топливо – yoqilg'i, заочно – sirtqi kabi.

O'zbek adabiy tilining fonetik tizimida ham sezilarli darajada o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, tovushlar birikuvining yangi qonuniyatlari (unli bilan unlining, undosh bilan undoshning, unli bilan undoshning birikuvi kabi) hamda ayrim yangi tovushlar paydo bo'ldi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm-unlilar ohangdoshliligi qonuniyati deyarli yo'qoldi. Til oldi e fonemasi chuqur til orqa x tovushi bilan yonma-yon kela boshladi: sex, texnika, chex kabi. O'zbek tiliga xos bo'lmagan ikki unlining birikib kelish hodisasi yuz berdi: zoolog, kakao, aeroport kabi.

So'z o'zlashtirish tufayli bo'g'inning yangi turlari (so'z boshida va so'z oxirida ikki yoki uch undoshning qator kelishi) paydo bo'ldi: stu-dent, punkt, test, tekst, matn kabi.

O'zbek adabiy tilining so'z yasash imkoniyatlari kengaydi. So'z yasovchi affikslarning darajasi o'sdi, so'z qo'shish, kompozitsiya so'z yasashning unumli usullaridan biriga aylandi. O'zbek adabiy tilida so'z yasashning yangi usuli – so'z va uning qismlarini qisqartirish asosida, ya'ni abbrevatsiya usuli orqali so'z yasash ancha kengaydi: BMT, AQSh, MDH, SamDCHTI, ijroqo'm, O'zbekiston teleradiokompaniyasi kabi.

O'zbek adabiy tili grammatikasida ham o'zgarishlar yuz berdi. Bu grammatik qoidalarining silliqlashishi, o'zbek tilining yetakchi dialektlari negizida ayrim yangi qoidalar paydo bo'lishida ko'rinadi.

Morfologiya sohasida adabiy til va yetakchi dialektlarda bo‘lmagan ba’zi grammatik shakllar o‘zbek tilining boshqa shevalaridan qabul qilindi. Jumladan, Xorazm shevasidan - ajak shakli adabiy tilga kiritildi. Borayapti, kelayapti kabi so‘zlardagi hozirgi zamon fe‘l shaklining tilimizda o‘zlashib, vazifasi kengayishi kuzatilmoqda.

O‘zbek tili sintaksisida yangi birikmalarining yuzaga kelishi, ajratilgan bo‘lakli gaplar hamda kirish birikmali gaplarning qo‘llanish doirasining kengayishi, bir tarkibli gaplarning yangi turlari paydo bo‘lishi va boshqa hodisalar yuz berdi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasi kengaygan, hamma sathlari taraqqiy etgan, uslubga ko‘ra tobora differensiatsiyalashib borayotgan tildir.

O‘zbek adabiy tili ko‘p lahjali (dialektli) til hisoblanadi. Bu o‘zbek millatining o‘tmishdagi har xil etnik tarkibi bilan izohlanadi. O‘zbek milliy tilining uchta katta ichki manbai-dialektlar guruhi (bir-biriga yaqin shevalar yig‘indisi dialekt deyiladi) bor. Bular:

1. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi.
2. Qipchoq lahjasi.
3. O‘g‘uz lahjasi.

O‘zbek tili dialektik tarkibining murakkab va rang-barangligi unda mustaqil turkiy xalqlardan ba’zilarining til xususiyatlari o‘z aksini topishiga sabab bo‘lgan. Chunonchi, o‘zbek tilining qipchoq dialektida qoraqalpoq va qozoq tillari bilan fonetik va grammatik jihatdan yaqinlik alomatlari, o‘g‘uz dialektida esa turkman tilidagi lingvistik xususiyatlar bor va nihoyat shahar tipidagi shevalarni o‘z ichiga olgan qarluq-chigil-uyg‘ur dialekti (bu termin prof. V.V.Reshetov tomonidan qabul qilingan) uyg‘ur tili bilan yaqinlikni tashkil qiladi. Bu dialektlarning har qaysisi o‘ziga xos ma’lum fonetik va leksik-grammatik xususiyatlari bilan farqlanadi. O‘zbek tilining dialekt va shevalari asta-sekin bir butun o‘zbek umumiy xalq tili bo‘lib birikib borayotganligiga qaramay, uning lahjalari va ayrim shevalari orasidagi farqlar hozirgi vaqtda ham saqlanib kelmoqda. Jumladan, o‘zbek tilining qipchoq dialektida singarmonizmning to‘liq saqlanib qolganligi, to‘qqizta unli fonemaning mavjudligi, so‘z boshida y tovushi o‘rniga j tovushining qo‘llanishi, f tovushining deyarli qo‘llanmasligi, morfologik jihatdan oltita kelishik qo‘shimchasining to‘liq saqlanganligi, leksik tomondan turli so‘zlarning saqlanib qolganligi (checha, bo‘la, kulchatoy) kabilar ko‘zga tashlanadi.

Shunga o‘xshash xususiyatlar o‘zbek tilining deyarli har bir dialekti va shevasida oz-moz saqlanib qolgan. Masalan, Toshkent shevasida singarmonizm qonuni buzilgan, 7-8 unli fonema saqlanib qolgan, h tovushi deyarli qo‘llanmaydi, a tovushi e ga o‘tadi (qaytdimda-qaytdimde, ayt-eyt, borginda-borginde), progressiv assimilyatsiya hodisasi ko‘p uchraydi (bizni-bizzi, sizni-sizzi, oshni-oshshi). Morfologik jihatdan Toshkent shevasida beshta kelishik bor, hozirgi zamon birinchi shaxs ko‘plik formasi shaxs-son affiksi –miz –vuz tarzida qo‘llanadi (borovuz, kelovuz, ishlayvuz) va xokazo.

Samarqand, Buxoro shahar shevalari esa tojik tilining ta'siriga uchraganligi bilan xarakterlanadi. 6 ta unli fonema saqlanib qolgan: til orqa u va ы fonemalari yo'qolgan(u(o) va ы), kelishiklar soni 4 taga kelib qolgan, leksikasida esa arabcha, fors-tojikcha so'zlar ko'p.

Oddiy so'zlashuv nutqi dialektlardan farqli ravishda biron-bir hudud bilan bog'lanmagan bo'ladi. Oddiy so'zlashuv o'z nutqiga e'tibor bermaydigan qo'pol so'z va iboralardan foydalanuvchi madaniyatsiz kishilar nutqidir. Oddiy nutqda o'rinsiz so'zlar (varvarizmlar, vulgar so'zlar)dan foydalaniladi. Masalan: Ertaga ekzamen sdavat qilaman, Zvonit qildim kabi.

Shubhasiz, dialektizm va shevachilik adabiy tilga xizmat qilishdan uzoq turadi, lekin o'zbek tilining dialektologiyasini, til qonuniyatlarini, tildagi integratsiya va differentsiatsiya hodisalarini o'rganish, dialektologik atlaslarni yaratishda kerak bo'ladi. Shu tufayli bu xususiyatlarning barchasi to'planib, o'rganiladi.

Umumxalq tilining yuqori shakli adabiy til bo'lib, u tilning fonetik, leksik va grammatik qurilishida mavjud qonuniyatlarni ma'lum bir me'yorga solib turadi. Bu me'yor shu tilda so'zlovchi barcha kishilar uchun umumiy va majburiy hisoblanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili ma'lum me'yorga solingan, o'zbek xalqining madaniy ehtiyoji va talablarini qondirishga xizmat qiladigan milliy adabiy tildir, matbuot, fan, adabiyot, kitob, radio, televideniye, teatr, davlat muassasalari va o'quv yurtlarida amal qilinadigan tildir. Hatto ma'ruzalar, radio eshittirishlar, teatr tomoshalari og'zaki nutq shaklida ko'rinsa-da, ularning matnlari yozma shaklda bo'ladi.

Adabiy til umumxalq tili bilan uzviy aloqada bo'ladi. Adabiy til umumxalq tilining yozuvchilar, so'z san'atkorlari, ziyolilar tomonidan qayta ishlangan, sayqal berilgan ko'rinishidir.

Adabiy til og'zaki va yozma shakllarga ega. Adabiy tilning og'zaki shakli o'zaro suhbatlarda, uning yozma shakllari fan-texnika, adabiyot asarlarida, rasmiy-ish hujjatlarida ishlatiladi.

Adabiy tilning og'zaki shakli folklorda-ashula, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlar, topishmoq, ertak va dostonlarda o'z aksini topib, og'izdan-og'izga o'tib ixchamlashadi, uning yagona umumiy me'yorlari paydo bo'la boshlaydi. Adabiy tilning yozma shakli esa yozuv bilan bog'langan bo'lib, og'zaki adabiy til asosida yuzaga kelgan umumiy me'yorlarni rivojlantiradi, mustahkamlaydi va qat'iy bir qolipga soladi.

Yozma adabiy tilning paydo bo'lishi odatda biror xalqning yoki bir guruh xalqlar yozuvining, ancha rivojlangan yozma adabiyotning, shuningdek, ma'lum bir an'anaga ega bo'lgan madaniyatning mavjudligi bilan bog'liq. Masalan, turkiy yozma adabiy tili VII-XI asrdayoq mavjud bo'lgan. Adabiy tilning yozma shakli adabiy orfografik, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalarga amal qiluvchi grafik shaklidir. Yozma shakllarda nutq bo'laklari (taktlari), abzaslar, gaplar, ularning tarkibi turli xil tinish belgilari vositasida ajratib ko'rsatiladi.

Adabiy tilning yozma shakli uchun zamon va makonning ahamiyati yo‘q. U o‘tmish bilan bugunni hamda kelajakni bog‘lab turuvchi imkoniyatga ega. Biroq u savodsiz kishilar uchun aloqa vositasini bajara olmaydi. O‘tmishda og‘zaki adabiy til bilan yozma adabiy tilning aloqasi kuchsiz bo‘lgan. XX asrga kelibgina savodxonlikning o‘ssishi bilan adabiy tilning yozma shakli og‘zaki shaklga yaqinlashtirildi.

O‘zbek tilshunosligi fani. XX asrga kelib mamlakatimizda madaniy qurilish ishlarini taraqqiy ettirish, savodxonlikni ta‘minlanish, maktablarda ona tilini o‘qitish masalalari kun tartibiga qo‘yildi. Ona tilida darslik va qo‘llanmalar yaratildi, alfavit, imlo isloh qilindi. O‘zbek tilini rasmiy va izchil tarzda o‘rganish boshlandi. O‘zbek tilshunosligi fani paydo bo‘ldi.

O‘zbek tilshunosligi savodxonlikni ta‘minlash, adabiy til me‘yorlarini ishlab chiqish va umuman madaniy yuksalish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishda katta xizmat qildi. Jumladan, o‘zbek tilshunosligi fanining eng muhim bo‘limlaridan biri “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursi ham nazariy va amaliy jihatdan katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili”kursi bo‘limlari bir necha turli bo‘lib, bular quyidagilardan iborat:

1. Fonetika va fonologiyada hozirgi o‘zbek adabiy tilining tovush sistemasi, fonemalar tizimi o‘rganiladi.

2. Orfoepiyada hozirgi o‘zbek adabiy tilining talaffuz me‘yorlari o‘rganiladi.

3. Grafika hozirgi o‘zbek alifbosi tarkibi, tovush va harfning o‘zaro munosabatini o‘rgansa, orfografiya morfologik, fonetik va an‘anaviy uslublar asosida to‘g‘ri yozuv qoidalari tizimini aniqlaydi.

4. Leksikologiya va frazeologiya o‘zbek adabiy tilining leksik birliklari va frazeologik birliklari, ularning tuzilishi hamda taraqqiyot qonuniyatlari haqida bahs etadi. Leksikografiya esa lug‘at, uning tuzilishi va turlarini o‘rganadi.

5. Morfemika bo‘limida morfemalar, ya‘ni so‘zning ma‘noli qismlari va ularning turlari, xususiyatlari, so‘zning morfem tuzilishidagi o‘zgarishlar aniqlanadi.

6. So‘z yasalishi bo‘limida hozirgi o‘zbek adabiy tilida yangi so‘z hosil qilishning muhim belgilari, so‘z yasash usullari o‘rganiladi.

7. Grammatikaning morfologiya qismida so‘zning grammatik shakllari, grammatik tarkibi, so‘z turkumlari va ularga xos grammatik kategoriyalar; sintaksis qismida so‘zlarning birikuvi, gapning tuzilishi va turlari o‘rganiladi, shuningdek, sintaksis asosida tinish belgilarini ishlatish qoidalari (punktuatsiya) bayon qilinadi.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursining maqsadi o‘zbek milliy tilining yuqori shakli bo‘lgan hozirgi o‘zbek adabiy tilining asosiy hodisalari haqida izchil ma‘lumot berish, ularning muhim xususiyatlarini ko‘rsatib berish va taraqqiyot yo‘llarini belgilashdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., Фан, И-китоб, 1966.
2. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Т., “Ўқитувчи”, 1973.
3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили Т., Ўзбекистон, 1992.
4. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. И-қисм, Тошкент, 1980.
5. Хамдамов Ж. Ўзбек тили тарихи. И-қисм, Самарқанд, 1999.
6. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 1969.
7. Ҳожиёв А. Лингвистик терминлар луғати. Т., Фан, 1992.
8. Миртожиев М.М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 2004.

O‘TILGAN MAVZU BO‘YICHA SAVOLLAR

1. O‘zbek tili taraqqiyoti davrlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Eski o‘zbek adabiy tilining qanday xususiyatlari bor?
3. O‘zbek tili lahjalarining o‘ziga xos tomonlari haqida nima deysiz?
4. O‘zbek tili rivojida lingvistik omillarga nimalar kiradi?
5. Ekstralingvistik omillarning til taraqqiyotidagi o‘rni qanday?

TAYANCH SO‘ZLAR VA BIRIKMALAR

Oltoy tillar oilasi, qadimgi turkiy adabiy til, eski o‘zbek adabiy tili, hozirgi o‘zbek adabiy tili, Navoiy -eski o‘zbek adabiy tilining asoschisi, lingvistik omil, ekstralingvistik omil, qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi, qipchoq lahjasi, o‘g‘uz lahjasi, adabiy til tushunchasi.

Ikkinchi ma'ruza.
Fonetika va fonologiya
Reja:

1. *Fonetika va fonologiya.*
2. *Tovush va fonema.*
3. *Tovush va harf.*
4. *Nutq a'zolari va nutq apparati.*
5. *Unli va undosh fonemalar.*
6. *Unli tovushlar tasnifi.*
7. *Undosh tovushlar va ularning tasnifi.*

Fonetika (grekcha phone-“tovush” so‘zidan olingan) tilshunoslik fanining mustaqil bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda til birliklari-morfemalar, so‘zlar va gaplarni hosil qilishda moddiy material (qobiq) bo‘lib xizmat qiladigan nutq tovushlari o‘rganiladi.

Hozirgi o‘zbek tili fonetikasi nutq tovushlarining hosil bo‘lish usullari, nutq tovushlarining vazifalari, ularning akustik-artikulyatsion belgilari asosida tasniflarini belgilash kabilarni ham tekshiradi.

Shuningdek, segment fonetik birliklar hisoblanuvchi tovushlardan tashqari, nutqda ishtirok etuvchi supersegment fonetik birliklar-urg‘u va ohang haqida ham bahs yuritadi.

Fonetikada nutqning ohanglar zanjirini tashkil etuvchi birliklar-bo‘g‘in, takt, fraza kabilar ham o‘rganiladi.

Fonetika adabiy talaffuz me‘yorlarini belgilovchi, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish qoidalari va nazariyasini belgilovchi orfoepiya bilan uzviy bog‘liqdir.

Nutq tovushlari so‘zning moddiy (material) qobog‘i hisoblanadi. Nutq tovushlari nutq a‘zolarining turlicha faoliyati natijasida yuzaga keladigan murakkab hodisa bo‘lib, **til birligi** hisoblanadi.

Nutq tovushlarining xususiyatini belgilashda nutq a‘zolari va ularning vazifasini bilish zarur. Nutq tovushlarini hosil qilishda qatnashadigan a‘zolarga nutq apparati (organlari) deyiladi.

Nutq apparati uch qismdan iborat:

1. Nafas apparati. Bunga o‘pka, kekirdak (traxeya) va bronxlar-nafas yo‘llari kiradi.
2. Bo‘g‘iz, undagi ovoz paychalari va tog‘aylar.
3. Havo bo‘shlig‘i tizimi. Bunga xalqum, xiqildoq, og‘iz bo‘shlig‘i, burun bo‘shlig‘i kiradi.

Nutq a‘zolari tovush hosil qilishdagi vazifasiga ko‘ra faol va sust a‘zolarga bo‘linadi. Ovoz paychalari, til, lablar va pastki jag‘ faol a‘zolardir. Tish, qattiq tanglay va burun bo‘shlig‘i esa sust a‘zolarga kiradi.

Tovush haqida tushuncha. Havoning to‘lqinlanishidan tovush hosil bo‘ladi. Biror jism (dutor, tanbur tori)ning tebranishi havoni to‘lqinlantiradi va tovush paydo qiladi. Bu fizik tovushdir. Nutq tovushlari ulardan farq qilib,

o'pkadan chiqqan havo (nafas)ning tovush paychalarini tebrantirib o'tishi, nutq organlarining talaffuz vaqtidagi faoliyati natijasida vujudga keladi.

Nutq tovushlarining tabiatdagi boshqa tovushlardan farqi ularning kishilar o'rtasida nutqiy aloqa qilish vositasi bo'lib xizmat qilishidir. Demak, nutq tovushlari ma'no ajratishga xizmat qiladi, ularning mohiyati va asosiy xizmati ham shundadir.

Tovush bilan harfni farqlash lozim, ular bir narsa emas. Harf tovushga o'z ijtimoiy xizmati bilan teng kela olmaydi.

Harf tovushning yozuvdagi shartli belgisidir. Shuningdek, tovushning xizmat qilish doirasi harfnikiga nisbatan juda kengdir. Tovush harfga nisbatan buyoqdor bo'ladi. Harf tovushdagi bu buyoqlarning hammasini emas, bir qismini shartli ravishda aks ettiradi. Jumladan, bordi, keldi, to'qqiz singari so'zlarning tarkibidagi i tovushi aynan bir xil bo'lmay, ma'lum darajada farqlanadi. Ammo yozuvda bitta harf (belgi) bilan ifoda etiladi. Nihoyat, **harf yozuv birligi, tovush esa til birligidir.**

Fonema va uning variantlari. So'z tilning asosiy birligidir. Nutq tovushlari esa tilning eng kichik bo'lagidir. Ular ikkiga bo'linadi: fonema va fonema variantlari.

So'z ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan nutq tovushlari **fonema** deyiladi. Fonema nutq tovushlarining asosiy qismi yoki uning asosiy turidir. Demak, fonema tabiatda uchraydigan har qanday tovush emas, balki sotsial ahamiyatga ega bo'lgan inson tovushidir. Masalan: bor, ber, bir, bur, bo'r so'zlari faqat o, e, i, u, o unililariga ko'ra ma'noda farqlanadi. Bosh, bor, bog', bol so'zlari esa sh, r, g', l undoshlariga ko'ra ma'noda farqlanadi. Ma'no farqlashda xizmat qiladigan mana shu unli va undosh tovushlar fonemalardir.

Nutq tovushlarining ma'no ajratish uchun xizmat qilmaydigan qismi fonemaning variantlari (allofonlar) hisoblanadi.

Fonema variantlari yondosh tovushlar ta'sirida paydo bo'ladi. Og'zaki nutqda **f** o'rniga **p** shaklida talaffuz qilish (fabrika-pabrika), **b** o'rniga **p** talaffuz (maktab-maktap, hisob-hisop) etilishi so'zning ma'nosini o'zgartirmaydi. Demak, **f** va **b** tovushlari o'rniga **p** tarzida talaffuz qilinishi yangi fonema tarzida tushunilmaydi. Bunday tovush o'zgarishi, ya'ni so'zdagi yon tovushlar ta'sirida hosil bo'ladigan tovush o'zgarishlari- **tovushlarning kombinator variantlari** deyiladi. O'zbek yozma adabiy tilidagi **u, i, a, o'** fonemalarining ham kamida ikkitadan, ya'ni til oldi va orqa variantlari bor. Masalan: o'rdak, ko'ngilli, o'roq, qo'l, ko'l, uzum, uzoq, quloq, ish, kitob, qish, o'g'il kabi.

Fonemaning uch tomoni bor:

1. Akustik (eshitilish) tomoni.
2. Fiziologik yoki artikulyatsion (aytilishi yoki talaffuz) tomoni.
3. Sotsial (ma'no ajratish) tomoni.

Akustik (eshitilish) tomonidan tovush biror jismning boshqa jism tomonidan tebrantirilishi va bu tebranishning quloqqa eshitilishidir. Akustik jihatdan tovushning balandligi, kuchi, tembri va cho'ziqligi farqlanadi. Tovushning

balandligi tebranishning miqdoriga bog'liq, tebranish qancha ko'p bo'lsa, tovush ham shunchalik baland bo'ladi va, aksincha, tebranish oz bo'lsa, tovush ham past bo'ladi.

Tovush kuchi tebranishning shiddatiga bog'liq. Tebranish darajasi qanchalik katta bo'lsa, tovush ham shunchalik kuchli chiqadi. Tovushning kuchi o'pkadan chiqayotgan havo oqimining nutq organlariga qanday zarb (kuch) bilan urilishiga qarab har xil bo'ladi.

Nutq tovushining tembri (sifati) asosiy ton bilan yordamchi tonlarning (oberton, rezonator tonlarning) va shovqinning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Tovushlarning tembri rezonatorlik vazifasini bajaruvchi og'iz va burun bo'shlig'ining hajmi hamda shakliga va boshqalarga bog'liqdir.

Shunga ko'ra bir kishining ovozi boshqa kishining ovozidan farq qiladi.

Tovushning cho'ziqligi darajasi tebranish davom etgan vaqt bilan o'lchanadi. Masalan, turkman tilidagi qisqa va uzun u-u:, a-a:, o-o:, i-i: unlilari tebranishning qisqa va uzoqroq vaqtda davom etgani bilan izohlanadi.

Nutq tovushlarining hosil bo'lishidagi ikkinchi tomon-fiziologik (talaffuz) tomoni esa, nutq apparatining faoliyati bilan bog'langan. Nutq a'zolarining tovush hosil qilishdagi faoliyati, uning turlicha harakati **artikulyatsiya** deyiladi. Shuning uchun fiziologik jihat nutq tovushining artikulyatsiya tomoni hisoblanadi.

Artikulyatsiyada ikki narsa farq qilinadi: artikulyatsiya o'rni va artikulyatsiya usuli. U yoki bu nutq organining tovush hosil qilishda faol qatnashgan qismi **artikulyatsiya o'rni** bo'ladi. Tovush hosil bo'lish paytida ikki organning bir-biri bilan jipslashishi yoki jipslashmay orada havoning o'tib ketishi uchun bo'shliq qolishi **artikulyatsiya usuli** deyiladi.

Artikulyatsiya o'rni va usuli nutq tovushlarini tasvirlash va tasnif qilish uchun muhimdir.

Fonemaning sotsial, ya'ni ma'no ajratish tomoni hal qiluvchi ahamiyatiga ega. Shu belgi bo'lmasa, tovush fonema hisoblanmaydi.

Shunday qilib, nutq tovushlarining hosil qilinishi akustika va fiziologik jarayonning ishtiroki natijasida yuzaga keluvchi murakkab hodisadir. Nutq jarayonida nutq tovushlarining sotsial qimmati (ma'no farqlovchi qimmati) hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mana shu uch tomon birgalikda nutq tovushlarining muhim uch aspektini tashkil etadi.

Unli va undosh tovushlar, ularning o'zaro munosabati

An'anaviy tasniflashga ko'ra, nutq tovushlari unli va undosh fonemalarga bo'linadi. Nutq tovushlarining unli va undosh fonemalarga bo'linishi ularni talaffuz etishdagi fiziologik farqlarga hamda akustik hususiyatlarga asoslanadi.

Unli tovushlarni hosil qilishda havo oqimi o'pkadan nafas yo'li orqali hech qanday to'siqqa uchramay chiqadi. Un paychalarining titrashi natijasida musiqiy ovoz yuzaga keladi. Bu vaqtda og'iz bo'shlig'i ochiq bo'ladi. Unli tovushlarning sifati va xususiyati og'iz bo'shlig'idagi nutq a'zolarining harakati va holati bilan bog'langan.

Undosh tovushlarni hosil qilishda o'pkadan chiqadigan havo oqimi har xil to'siqlarga uchraydi. Natijada og'iz bo'shlig'ida ovoz shovqin bilan aralashadi yoki faqat shovqinning o'zi hosil bo'ladi.

Unli tovushlar tasnifi

Hozirgi yozma o'zbek adabiy tilida olti unli fonema bor: a, o, e, i, u, o'. Bular uch yo'l bilan tasnif qilinadi. Bunda faol nutq organlaridan bo'lgan til va lablarning unlilarni hosil qilishidagi harakati va holati hisobga olinadi.

1. Tilning gorizontaal (yotiq) holatiga ko'ra.
2. Tilning vertikal (tik, tanglayga tomon) harakatiga ko'ra.
3. Lablarning ishtirokiga ko'ra.

1. Tilning gorizontaal holatiga ko'ra unlilar ikkiga bo'linadi:

- a) oldingi qator yoki til oldi unlilari: i, e, a.
- b) orqa qator yoki til orqa unlilari: u, o', o.

Bunday bo'linishning asosi shundaki, til oldi unlilari talaffuz qilinganda, tilning oldingi qismi ko'proq harakatga keladi. Til orqa unlilari talaffuz qilinganda esa, tilning orqa qismi harakatga kelib, ko'pincha yumshoq tanglay tomon yo'naladi.

Eslatma: O'zbek adabiy tilida i, u fonemalarining til oldi va til orqa variantlari mavjud.

2. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra unlilar uchga bo'linadi:

- a) yuqori ko'tarilish yoki tor unlilar: **i, u.**
- b) o'rta ko'tarilish yoki o'rta-keng unlilar: **e, o'.**
- v) pastki ko'tarilish yoki keng unlilar: **a, o.**

Tor unlilarni hosil qilishda til yuqori ko'tarilib, tanglayga juda yaqinlashadi, havo yo'li ancha torayadi; o'rta-keng unlilarni hosil qilishda esa til o'rta darajada ko'tariladi, keng unlilarning aytilishida esa ancha pastga tushiriladi.

3. Lablarning ishtirokiga ko'ra unlilar ikkiga bo'linadi:

- a) lablashgan unlilar: u, o'.
- b) lablashmagan unlilar: i, e, a, o.

Lablashgan unlilarni talaffuz qilgan vaqtda lablar faol ishtirok etadi. Shuning uchun lablar doira shakliga kirib, oldinga qarab cho'ziladi. Bu hol tovushning aytilishi, eshitilishini o'zgartiradi, natijada lablashgan tovush hosil bo'ladi.

Lablashmagan unlilarni talaffuz qilgan paytda ham lablar ishtirok etadi. Lekin ularning ishtiroki passiv (sust) bo'ladi.

Unli tovushlar xarakteristikasi.

i-unlisi-old qator, lablashmagan, tor unli. Tilning tanglay tomon ko'tarilishi va og'izning nisbatan tor ochilishi bilan qisqa talaffuz etiladi. So'zning turli o'rinlarida keladi. So'z boshida va til oldi undoshlari orasida old qator unli sifatida aytiladi: til, iz, yigit kabi.

i unlisi chuqur til orqa g', q, x undoshlari bilan yonma-yon kelsa, orqa qator unli sifatida (ы) talaffuz qilinadi: qyishki, g'ysht kabi. Ikki jarangsiz undosh

tovush orasida va n,l,r,z undoshlaridan oldin juda qisqa talaffuz qilinadi: ninachi, bilib, siz, kirish kabi. Soʻz oxirida e tovushiga moyil ochiqroq talaffuz qilinadi.

u unlisi-orqa qator, lablashgan, tor unli. Unlini talaffuz qilishda til tanglay tomon koʻtarilib, ogʻiz juda torayadi, lablar oldinga choʻziladi. u unlisi til oldi va sayoz til orqa undoshlar bilan yonma-yon kelganda, old qatorga moyil boʻladi: gunoh, zuluk, juvoz kabi. Chuqur til orqa undoshlar bilan yonma-yon kelganda, orqa qatorga moyil boʻladi: quduq, bugʻdoy, xursand kabi. Ikki jarangsiz undosh orasida, shuningdek, urgʻusiz boʻgʻinlarda kuchsizlanib, qisqa talaffuz etiladi: chuchuk, suyuq, tushum kabi.

e unlisi-old qator, lablashmagan, oʻrta keng unli. Tilning tanglay tomon yuqori-oʻrta koʻtarilishi, til uchining pastki tishlarga tegishi bilan yumshoq talaffuz etiladi, ogʻiz bir muncha torayadi. e unlisi soʻz boshida va ochiq boʻgʻinlarda ochiqroq talaffuz etiladi: et, ehson, meva kabi. Bir boʻgʻinga mansub ikki undosh orasida kelsa, bir oz yopiqroq aytiladi: mergan, zehn, sezgir kabi. Rus tilidan oʻzlashgan soʻzlarda e unlisi turli boʻgʻinlarda keladi va keng aytiladi: etyud, poema, general kabi.

oʻ unlisi-orqa qator, lablashgan, oʻrta keng unli. Har vaqt soʻzning birinchi boʻgʻinida keladi: boʻz, boʻy, koʻkat kabi. Bu unlining qattiq-yumshoqligi qanday tovushlar bilan yondosh kelishiga bogʻliq: g, k, y, ch tovushlaridan keyin kelsa yumshoq (old qator) unlidek aytiladi (goʻzal, koʻngil, koʻklam kabi), gʻ, q, x kabi chuqur til orqa undoshlaridan oldin va keyin kelganda qattiq (chuqur til orqa qator) unlidek aytiladi (toʻqay, toʻgʻri, toʻgʻon kabi). Bu unli soʻzning ochiq boʻgʻinida kengroq (koʻkat, koʻza, toʻqay, doʻkon kabi), undoshlar orasida yopiq boʻgʻinlarda esa torroq (toʻlqin, soʻqmoq, choʻqqi kabi) talaffuz etiladi.

a unlisi-old qator, lablashmagan, keng unli. Uning aytilishida lablar kerilib, tilning oldingi qismi pastga tushadi, uchi esa pastki tishlarga yaqinlashadi. Bu unli soʻzning har qanday boʻgʻinida kela oladi, alanga, bezak, kurash kabi. Chuqur til orqa undoshlari bilan yondosh kelganda orqa qator unliga moyil boʻladi: *aql*, *vasiqa*, *gʻalla*, *xalq* kabi.

o unlisi-orqa qator, lablashmagan, keng unli, deyarli lablanmagan (lab undoshlari bilan kelsa lablangan. Buxoro, Samarqand shevalarida chuqur til orqa, oʻrta kehgdan ochiqroq, lablangan unli). Uning aytilishida til ichkari tortiladi, tilning uchi tishlardan uzoqlashadi, pastki jagʻ esa tushiriladi. Soʻzning barcha boʻgʻinlarida kelaoladi: bozor, bodom, soxta kabi. Chuqur til orqa undoshlari **q**, **gʻ**, **x** yondosh kelganda esa qattiq (orqa qator) unliga moyil aytiladi: *sogʻ*, *oxir*, *qogʻoz* kabi.

Undosh fonemalar tasnifi.

Oʻzbek adabiy tili undoshlar tizimi (konsonontizm)da 24 undosh fonema bor. Bu fonemalardan bittasi yozuvda alohida harf bilan ifodalanmaydi. *Joʻja* (*djodja*), *jiyda* (*djiyda*) kabi soʻzlarda uchraydigan til oldi, qorishiq, jarangli **dj** tovushi **j** harfi bilan beriladi: *yangi*, *chang* kabi.

Undosh tovushlar tovush paychalarining harakati (taranglashishi) holatiga va ogʻiz boʻshligʻining qayerida toʻsiqqa uchrashiga, faqat shovqindan iborat boʻlishi

yoki ovoz shovqindan ustunligiga, shuningdek, talaffuz etilish usuliga qarab bir-birlaridan farqlanadi va shunga ko'ra tasnif qilinadi.

Undoshlarni xarakterlash va tasnif qilish unlilarga nisbatan murakkabroqdir. Undoshlar paydo bo'lishi, jarangliligi, jarangsizligi, ovozning ishtiroki, sof hamda murakkabligi va shunga o'xshash qator belgilari bilan unlilarga nisbatan xilma-xildir.

Undoshlar unlilarga nisbatan boshqacharoq jihatlariga asoslanib tasnif qilinadi va bunda ma'lum qoidalarga asoslaniladi. Undoshlarning umumiy bo'linishini ko'rsatuvchi tomonlar beshtadir:

1. Undoshlarning paydo bo'lish o'rniga ko'ra xususiyatlari.
2. Aytilish usuliga ko'ra bo'linishi.
3. Tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra bo'linishi.
4. Undoshlarning ovoz ishtirokiga ko'ra bo'linishi.
5. Tarkibiga ko'ra bo'linishi.

Bulardan tashqari, undoshlarning ba'zi birlarigagina xos bo'lgan xususiy belgilar ham bor. Masalan, r fonemasi titroq, l fonemasi yon tovushdir. Lekin bunday xususiyatlar boshqa undoshlarga xos bo'lmagani sababli ular umumiy tomonlar qatoriga kirmaydi, balki faqat shu undoshlarning xarakterli xususiyatidir. Yuqorida ko'rsatilgan 5 ta umumiy tomon esa barcha undoshlar uchun tegishlidir.

Undoshlarni guruhlariga bo'lib o'rganish ularning xususiyatlarini o'zlashtirish uchun ham ancha qulayliklar yaratadi. Shunga ko'ra undoshlar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

I. Paydo bo'lish o'rniga ko'ra undoshlar bir necha guruhlariga bo'linadi: 1. Lab undoshlari 2. Til yoki til-tish undoshlari 3. Bo'g'iz tovushi.

1. Lab undoshlarini hosil qilishda lablar bir-biri bilan jipslashadi. Pastki labning yuqori lab bilan yoki tishlarga jipslashuviga yoki yaqinlashuviga ko'ra lab undoshlari ikkiga bo'linadi: **lab-lab undoshlari: b, m, p (w) v, lab-tish undoshlari: f, v.**

2. Til yoki til-tish undoshlari uch xil bo'ladi:

A) til oldi undoshlari tilning old qismi yuqori tish yoki milkka tomon harakat qilishi natijasida paydo bo'ladi: d, t, z, s, j, sh, j (dj), ch, n, l, r undoshlari.

B) til o'rta undoshini hosil qilishda tilning o'rta qismi tanglayga yaqinlashadi: y undoshi.

D) til orqa undoshlari tilning orqa qismining yumshoq tanglayga jipslashishi yoki yaqinlashishi natijasida hosil bo'ladi. Bu undoshlar ikki xil: yaqin til orqa - **k, g, ng** undoshlari; chuqur til orqa - **q, g', x** undoshlari.

3. Bo'g'iz tovushi h. Bu undosh tovush bo'g'iz bo'shlig'ida hosil bo'ladi.

II. Aytilish usuliga ko'ra undoshlar: portlovchilar va sirg'aluvchilarga bo'linadi.

1. Ba'zi undoshlar talaffuzida havo yo'li birdaniga to'silib, birdaniga ochilishi natijasida "portlash" yuz beradi. Bu undoshlarning talaffuzida tilning uchi yuqori tishning milkiga borib tegishi yoki ikki labning bir-biriga yopishuvi, shuningdek, til orqa qismining yumshoq tanglayga yopishuvi natijasida havo yo'li

berkilib qoladi, to'siq hosil bo'ladi. O'pkadan kelgan havoning kuchi to'siqni birdaniga ochishi natijasida "portlash" yuz beradi va portlovchi tovushlar hosil bo'ladi: **d, t, b, p, g, k, q, j (dj), ch, m, n, ng** kabi.

2. Sirg'aluvchi tovushlarni talaffuz qilganda nutq organlari havo yo'lini to'sadi-yu, lekin orada qolgan kichik bo'shliqdan havo siqilib, sirg'alib chiqadi. Natijada sirg'aluvchi tovushlar hosil bo'ladi: **v, f, z, s, j, sh, g', x, y, h**.

III. Tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra undoshlar yana ikkiga bo'linadi:

1) jarangli undoshlar: **b, v, g, d, z, j, dj, g', y, m, r, l, n, ng**.

2) jarangsiz undoshlar: **p, f, s, t, sh, ch, k, x, q, h**.

Jarangli undoshlar talaffuz qilinganda tovush paychalari ishtirok etib, taranglashadi (tortiladi) va ular orasidagi tor oraliqdan o'tayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratib o'tadi. Jarangsizlarni talaffuz qilganda esa (ularda ovozdorlik sezilmaydi, chunki ular faqat shovqindan iborat) tovush paychalari taranglashmaydi va ular orasidagi keng oraliqdan o'tayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratmay o'tadi. Jaranglilarni talaffuz qilishida ovoz ham ishtirok etadi. Shu jihatdan eng ovozdor undoshlardan bo'lgan sonorlar ham jaranglilarga qo'shiladi. Jarangsiz undoshlarda ovoz ishtirok etmay, faqat shovqindan iborat bo'ladi.

IV. Ovozning ishtirokiga ko'ra undoshlar sonorlar va shovqinlilarga bo'linadi.

Sonorlarda ovoz ancha ko'p bo'ladi. Shuning uchun ular undoshlar ichida ovozlir oq bo'lib, unlilarga yaqin turadi. Lekin qisman shovqin ishtirok etgani uchun sonorlar undosh hisoblanadi. O'zbek tilida sonorlar beshta: **m, n, ng, l, r**. Qolgan undoshlarning hammasi shovqinlilar hisoblanadi.

V. Tarkibiga ko'ra undoshlar sof va qorishiq bo'ladi. O'zbek tilida ikkita qorishiq undosh bor: **ch** va **j (dj)**.

Qorishiq undoshlar tarixan ikki tovushning birikuvidan iborat bo'lib, bir portlovchi va bir sirg'aluvchi tovushni o'z ichiga oladi. Demak, u nutq organlarining asosan bir yerida paydo bo'lgan, ajratilmay aytiladigan tovushni bildiradi. Keyingi paytlarda ular bir qo'shaloq tovushga aylanib borgan. Qorishiq undoshlar tarkibidagi elementlar ikkitadan bo'lib, ular quyidagilardan iborat: **j** qorishiq undoshi **d** va **j** undoshlaridan, **ch** affrikati esa **t** va **sh** undoshlaridan qorishuvidan tashkil topgan.

Yuqorida aytilganidek, o'zbek tilida paydo bo'lish usuliga ko'ra burun, yon va titroq undoshlari ham ajratiladi.

Burun tovushlari: **m, n, ng**. Bu tovushlar havo oqimidan bir qismining talaffuz vaqtida burun bo'shlig'idan erkin o'tishi natijasida hosil bo'ladi.

Yon tovush: **l**. Bu tovush havo oqimi tilning ikki yonidan o'tishi natijasida hosil bo'ladi.

Titroq tovush: **r**. Bu tovush til uchining qattiq tanglayga tegar- tegmas titrab turishi natijasida hosil bo'ladi.

Undoshlar xarakteristikasi

Lab undoshlari:

p fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi (paxta, tuproq, ip). Koʻp boʻgʻinli soʻzlarning oxirida **p** kam uchraydi. Talaffuzda soʻz oxiridagi **b** hamma vaqt **p** bilan almashinadi (maktab-maktab).

b fonemasi. Soʻz boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi (bola, shabada, kitob).

v fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi (vaqt, qovun, olov). Lekin sof oʻzbekcha soʻzlarda **v** soʻz boshida qoʻllanmaydi, lab-lab tovushi oʻzbek tili uchun qadimiy va asosiy tovush boʻlib hisoblanadi. Lab-tish **v** esa keyingi tovushdir. Boshqa tillardan oʻzlashgan lab-tish **v** undoshi sof oʻzbekcha turkiy soʻzlarda soʻz oxirida deyarli uchramaydi.

f fonemasi. Bu tovush oʻzbek tilida ayrim undov va taqlid soʻzlarda mavjud. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi (fido, afzal, latif).

m fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kelaoladi (mol, somon, kirim, chiqim).

Til oldi yoki til-tish undoshlari.

d fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi (devor, ozod, shudgor). Talaffuzda soʻz oxirida kelgan **d** tovushi hamma vaqt jarangsizlashadi (baland-balant). Soʻz oxirida qavat kelgan undoshlardan biri (soʻnggisi) **d** boʻlsa, talaffuzda koʻpincha tushib qoladi: Samarqand-Samarqan.

t fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi (tosh, qattiq, yigit). Oʻzlashtirilgan soʻzning oxirida qavat kelgan undoshning biri soʻnggisi **t** boʻlsa, talaffuzda u koʻpincha tushib qoladi: goʻsht-goʻsh, doʻst-doʻs kabi.

n fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida keladi. **N** tovushi talaffuzda **b** tovushidan oldin **m** tovushiga aylandi: shanba-shamba, tanbur-tambur singari.

s fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi (suv, osmon, libos).

z fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida keladi (zarur, qizil, gʻoz). Soʻz oxirida kelgan **z** tovushi jarangsizlashib, **s** tovushiga moyil talaffuz qilinishi mumkin: boramis, kelamis kabi. **z** tovushi sof oʻzbekcha soʻzlarda soʻz boshida deyarli qoʻllanmaydi.

sh fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi (shamol, yumshoq, quyosh, tosh).

j grafemasi. Ikki fonemaning vazifasini bajaradi. a) til oldi, sirgʻaluvchi, jarangli undosh. Boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarda uchraydi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi: jurnal, ajdar, garaj.

b) **dj** fonemasi - til oldi, qorishiq, portlovchi, jarangli undosh tovush. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi: jar, jiyda, majbur, toj. Sof oʻzbekcha soʻzlarda **dj** soʻz oxirida deyarli qoʻllanmaydi.

ch fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi (chol, kecha, qilich). Jarangsiz undoshlardan oldin **sh** ga oʻtadi: uchta-ushta, uchdi-ushti.

l fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi: lak, buloq, koʻl. Talaffuzda bu fonemaning old qator unlilar taʼsirida yumshoqroq va orqa qator unlilar taʼsirida qattiqroq variantlari uchraydi: koʻl-qoʻl. **L** fonemasi sof oʻzbekcha

soʻzlarda soʻz boshida deyarli uchramaydi. Soʻz oʻrtasida kelganda koʻpincha ogʻzaki talaffuzda tushib qoladi: olsa-osa, kelsa-kesa kabi.

r fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kelaoladi (rasm, turna, chopar). Bu tovush sof oʻzbekcha (turkiy soʻzlarda) soʻz boshida umuman qoʻllanmaydi.

Til oʻrta undoshi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida birgina y undoshi til oʻrta undoshidir.

y fonemasi soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kelaoladi (yoʻl, kiyim, uy). Y tovushi baʼzan **z** tovushiga mos kelishi mumkin: yoymoq-yozmoq, suylamoq-soʻzlamok kabi.

Til orqa tovushlari.

k fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi (kuz, ikki, bilak).

g fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi (goʻdak, egar, barg). G soʻz oxirida sof oʻzbekcha soʻzlarda deyarli uchramaydi.

ng fonemasi. Bu tovush soʻz boshida uchramaydi. Soʻzning oʻrtasi va oxirida kela oladi (yangi, chang, tong).

q fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi (qora, toʻqson, chiroq). Shevalarda ogʻzaki nutqda q tovushi baʼzan x tarzida talaffuz qilinadi: toʻqson-toʻxson, chiqdi-chixti kabi.

gʻ fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi (gʻildirak, togʻa, togʻ). Sof oʻzbekcha soʻzlarda soʻz oxirida juda kam uchraydi (togʻ, bugʻ, tugʻ, yogʻ soʻzlari bundan mustasno).

x fonemasi. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida uchraydi (xotin, paxta, six, mix). Soʻz oxirida kam qoʻllanadi.

Boʻgʻiz undoshi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida birgina h tovushi boʻgʻiz undoshidir. Soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida kela oladi.

Bu tovush **oh**, **uh**, **voh** kabi oʻzbekcha undov soʻzlarda bor boʻlishiga qaramay, asosan, arab-fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlarda uchraydi.

Masalan: ham, hosil, hikoya, hayot, shahar, giyoh, siyoh kabi.

ADABIYOTLAR

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., Фан, I-китоб, 1966.
2. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. Т., “Ўқитувчи”, 1965.
3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили Т., Ўзбекистон, 1992.
4. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I-қисм, Тошкент, 1980.
5. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш. Маърузалар матни. Т., 1999.
6. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 1969.
7. Ҳожиёв А. Лингвистик терминлар луғати. Т., Фан, 1992.
8. Миртожиев М.М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 2004.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Fonetika fani nimani o'rgatadi?
2. Nutq apparati deb nimaga aytiladi?
3. Fonema bilan fonemaning variantlari orasida qanday farq bor?
4. Artikulyatsiya deganda nimani tushunasiz?
5. Unli tovushlar tasnifida nimalar hisobga olinadi?
6. Undoshlar tasnifida nimalarga asoslaniladi?

Tayanch so'zlar va birikmalar

Fonetika nutq tovushlari haqidagi fan; til, lab va tovush paychalari faol nutq a'zolari; fonemaning uch tomoni; unlilar uch tomonlama tasnif qilinadi; undoshlar besh tomonlama tasnif qilinadi.

Uchinchi ma'ruza.
Fonetika. Bo'g'in. Urg'u
Reja:

1. *Qo'sh undoshlar.*
2. *Nutqning fonetik bo'linishi.*
3. *Bo'g'in va urg'u.*
4. *So'z tarkibidagi ba'zi fonetik jarayonlar.*

Qo'sh undoshlar va ularning qo'llanilishi.

O'zbek tilida qo'sh undoshlarining qo'llanilishi odatdagi hodisadir. Biroq unli tovushlarning takrorlanishi, ya'ni bir xildagi va turli tipdagi ikki unlining bir joyda kelishi hodisasi yaqin vaqtlargacha bo'lmagan. Chunki u turkiy tillar taraqqiyoti uchun ancha keyingi hodisa hisoblanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa bu hodisa ancha ko'p uchraydi. Masalan, mudofaa, manfaat, oila, qoida, saodat kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida har xil undoshlarning qator kelishidan tashqari, ularning qo'shaloq holda ishlatilishi ham ko'plab uchraydi. Masalan, lo'ppi, katta, minnat kabi. Baynalmilal so'zlarda undoshlar so'z oxirida ham takrorlanib kela oladi: kilovatt, kilogramm, metall kabi. Bunday hodisa o'zbek tili tarixida bo'lmagan.

O'zbek tilida oldin so'zning boshida undoshlar qo'shaloq, qator kela olmas edi. Ammo keyingi paytlarda baynalmilal leksikaning ta'sirida adabiy tilimizda bu hodisa ham paydo bo'ldi: shturm, stol, stul, stansiya kabi.

Nutqning fonetik bo'linishi.

Nutq oqimi ohanglar zanjiridan iborat bo'lib, fraza (jumla), takt, so'z, bo'g'in va tovushlardan tashkil topadi. Bular nutqning fonetik birliklari deb ataladi.

Fraza eng katta fonetik birlik bo'lib, mazmunan tugal fikrni anglatadi, boshqa frazadan to'xtam orqali ajratiladi. Fraza gapga teng keladi.

Takt (yoki sintagma) frazaning bir qismi bo'lib, bir fonetik cho'qqiga birlashgan bir necha so'zdan yoki bir so'zdan iborat bo'ladi, frazaning boshqa qismidan yarim to'xtam bilan ajratiladi.

So'z nutqning alohida bir urg'u bilan aytiladigan bo'lagi. So'z takt ichida yoki o'zicha mustaqil keladi. So'z fonetik jihatdan yana ham mayda qismga-bo'g'inlarga bo'linadi. Bo'g'in esa tovushlardan hosil bo'ladi.

Bo'g'in. Bir nafas (havo) zarbi bilan aytiladigan bir yoki bir necha tovush bo'g'in deyiladi. Bo'g'in bir tovushdan iborat bo'lganda unli tovushga teng keladi.

Akustik jihatdan bo'g'in nutqning tovush parchasi bo'lib, unda bir tovush boshqalaridan jarangliligi bilan ajralib turadi. Odatda, unlilar bo'g'in hosil qiluvchi tovush bo'ladi. So'zning bo'g'inlarga ajralishi uning tarkibidagi unlilarga qarab belgilanadi. Undoshlar esa bo'g'in hosil qilmaydigan tovushlarga kiradi, bo'g'in hosil qilishda ular har vaqt unli bilan yonma-yon keladi yoki umuman qatnashmaydi.

Unli yoki undosh bilan tugashiga qarab bo'g'in ikki xil bo'ladi: 1. Ochiq bo'g'in, 2. Yopiq bo'g'in.

Ochiq bo'g'in unli bilan tugaydi yoki unlidan iborat bo'ladi: *ma-sa-la, da-la, sho-i-ra* kabi. Yopiq bo'g'in esa undosh bilan tugaydi: *deh-qon, ham-qish-loq* kabi.

So'zni yozuvda bir qatordan ikkinchi qatorga ko'chirib yozishda, bolalarga boshlang'ich sinfda savod o'rgatishda va she'riyatda bo'g'inning katta ahamiyati bor.

Urg'u

Ikki yoki undan ortiq bo'g'inli so'zlarda bir bo'g'inning boshqalaridan kuchliroq ohang bilan aytilishi **urg'u** deyiladi. Urg'uli bo'g'in odatda ko'p bo'g'inli so'zlarga nisbatan belgilanadi. Bunday urg'ular **so'z urg'usi** deyiladi. Masalan: qorli, vodi, tog'lar kabi.

Urg'uli bo'g'indagi unli kuchliroq ohang bilan aniq talaffuz etilishi jihatidan urg'usiz unlilardan ajralib turadi. O'zbek tilida urg'u dinamik bo'lib, ko'pincha so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi: ota, muhabbat, kabi. So'zga affikslar qo'shilishi bilan urg'u ham keyingi bo'g'inga ko'chib boradi: ota-otalar-otalarimiz kabi.

O'zbek tilida urg'u oxirgi bo'g'inga emas, balki oldingi bo'g'inga tushadigan so'zlar ham anchagina:

1) kelib chiqishi jihatidan arab va tojik tili bilan bog'liq bo'lgan *doim, hozir, albatta, chunki, ammo, hatto, lekin, ba'zi, ba'zan* kabi ravish, yordamchi va so'zlarda:

2) *hamma, barcha, qancha, qanday, allakim, allaqancha, kimdir, qachondir, har kim, har qachon, har qaysi, hech nima, hech qanday, hech qaysi* singari olmoshlarda.

So'zga qo'shimcha qo'shilganda urg'u shu qo'shimchaga ko'chadi. Shu bilan bir qatorda, urg'u olmaydigan affikslar ham bor. Bu vaqtda urg'u shu affiksdan oldinga bo'g'inda qoladi. Urg'u olmaydigan affikslarga quyidagilar kiradi:

1. Birinchi guruh tuslovchi affikslar (shaxs-son affiksining to'liq shakli): *o'qiyman, o'qiysan, o'qiganman, o'qigansan, kelarman, kelarsan, yozuvchiman, yozuvchisan, yozuvchimiz, yozuvchisiz* kabi.

2. Dona va chama son hosil qiluvchi **-ta, -tacha** affikslari: *beshta, sakkizta, o'nta, o'n beshtacha* kabi.

3. Ravish yasovchi **-cha, -dek, -day** affikslari: *bolacha, yigitcha, qahramonlarcha, gulday, qorday* kabi.

4. Fe'ning bo'lishsiz shakli **-ma** affiksi: *kelma, ishlama, borma* kabi.

Affikslardan tashqari, **-u (-yu), -ku, -da, -mi, -chi, -oq, (-yoq), -gina (-kina, -qina)** kabi yuklamalar ham urg'u olmaydi: *Keldi-da, ketdi, Saodat buvi asta ko'zlarini yumdi-yu, bir zumgina to'xtab qoldi.* (M.I.)

Baynalmilal so'zlarning urg'usi o'zicha saqlanadi: *leksiya, roman* singari. Ammo bu so'zlarga urg'uli affikslar qo'shilganda, urg'u shu affikslarga ko'chadi: *leksiyadan, romanni* kabi.

O'zbek tilida urg'u gap tarkibidagi so'zlarni bir-biridan ajratishga, shuningdek, so'zni yoki so'z shakllarini bir-biridan farqlashga ham yordam beradi. Masalan: *olma* (fe'l) -*olma* (ot); *to'qima* (fe'l) -*to'qima* (to'qima gap, sifat); *ulama* (fe'l) -*ulama* (ulama soch, sifat); *yangr* (sifat) -*yangi*, *hozir* (ravish); *uchuvchimiz*, *yozuvchimiz* (shaxs-son affiksi) -*uchuvchimiz*, *yozuvchimiz* (egalik affiksi).

O'zbek tilida so'z urg'usidan (leksik urg'udan) tashqari gap urg'usi (logik urg'u) ham bor. Logik urg'u gapda biror bo'lakni boshqasiga nisbatan kuchliroq aytish orqali ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi. Bunda diqqat alohida ajratib ko'rsatilgan so'zga qaratiladi. Masalan: Ahmad kecha biznikiga keldi. Kecha biznikiga Ahmad keldi. Biznikiga Ahmad kecha keldi.

Urg'uning sifat jihatdan dinamik (zarb), musiqiy va kwantativ(choziqlik) turlari bor. Dinamik urg'uda so'zning bir bo'g'ini kuchli talaffuz etiladi. O'zbek tilida urg'u dinamik urg'u hisoblanadi.

Tillar erkin va turg'un urg'uli bo'lishi ham mumkin. O'zbek tili turg'un urg'uli hisoblanadi.

So'z tarkibidagi fonetik jarayonlar. Kombinator va pozitsion o'zgarishlar

Nutq jarayonida so'z tarkibidagi tovushlar ayrim o'zgarishlarga uchraydi. Bu hodisa asosan tovushlarning o'zaro bir-biriga ta'siri natijasida yuz beradi. So'zlarni talaffuz qilish jarayonida unlilar, jarangli va jarangsiz undoshlar ma'lum fonetik qonuniyat asosida bir-biriga o'xshashlik yoki noo'xshashlik tomon o'zgaradi. Nutq jarayonida sodir bo'luvchi bunday o'zgarishlar tovushlarning kombinator va pozitsion o'zgarishlari deyiladi.

Nutq jarayonida tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida ro'y beradigan o'zgarishlarni kombinator o'zgarishlari deyiladi. Kombinator o'zgarishlar asosan undoshlar bilan bog'liq. Asosiy kombinator jarayonlar assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza va boshqalardir.

Assimilyatsiya (yunoncha *assimilatio* «o'xshash bo'lish» so'zidan). Nutq tovushlari qator kelganda ba'zan bir-biriga ta'sir qilib, biri ikkinchisini o'ziga moslashtiradi. Nutqdagi bunday hodisa assimilyatsiya deyiladi. Assimilyatsiya o'z xususiyatiga qarab ikki xil bo'ladi: progressiv assimilyatsiya va regressiv assimilyatsiya.

Progressiv assimilyatsiyada oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga o'xshatadi: *ketdi-ketti*, *otdan-ottan*, *yurakga-yurakka* kabi.

Keyindi tovush oldingi tovushga ta'sir qilib, uni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, regressiv assimilyatsiya deyiladi: *yoz+sin-yossin*, *uch+so'm-usso'm*, *tuz+sin-tussin* kabi.

Assimilyatsiya to'liq va qisman bo'lishi mumkin. To'liq assimilyatsiyada bir tovush ikkinchi tovushga aynan moslashadi, o'xshash bo'ladi: *tilak+ga-tilakka*, *ot+ni-otti* kabi. To'liqsiz assimilyatsiyada tovushlar bir-biriga qisman (to'liqsiz) o'xshash bo'ladi: *oqshom-oxshom*, *maqsad-maxsad*, *to'qson-to'xson* kabi

Dissimilyatsiya (yunoncha *dissimilatio* -“noo‘xshashlik” so‘zidan). Bir xil tovushlarning o‘zaro ta’siri ostida vujudga kelgan noo‘xshashlik dissimilyatsiya deyiladi. Dissimilyatsiya ham progressiv va regressiv kabi turlarga bo‘linadi.

Keyingi tovush noo‘xshash tovushga aylansa, progressiv dissimilyatsiya yuz beradi: zarar-zaral, zarur-zaril kabi.

Oldingi tovush o‘zgarsa, regressiv dissimilyatsiya yuz beradi: malol-maral, koridor-kalidor kabi.

Dissimilyatsiya hodisasi odatda kam uchraydi.

Metateza (yunoncha *metathesis*- «o‘rin almashtirish» so‘zidan). So‘z tarkibidagi undoshlarning o‘zaro o‘rin almashinishi metateza deyiladi: *ahvol-avhol, daryo-dayro, yog‘mir-yomg‘ir, tuproq-turpoq, aylanmoq-aynalmoq, yamlamoq-yalmamoq* kabi.

Tovushlarining talaffuzida ularning so‘zda tutgan o‘rni, urg‘uning ta’siri sababchi bo‘lsa, bunday o‘zgarishlarni pozitsion o‘zgarishlar deyishadi. Asosiy fonetik pozitsion jarayonlariga reduksiya, singarmonizm, jarangli undoshlarning jarangsizlanishi, so‘z boshida yoki oxirida tovush tushishi va boshqalar kiradi.

Singarmonizm (yunoncha *sun* -“birga” va *hormonia*- “ohangdoshlik” so‘zlaridan). So‘z tarkibidagi unli tovushlarning (shu jumladan, qisman undoshlarning ham) o‘zaro bir-biri bilan ohangdosh bo‘lishi, uyg‘unlashishi singarmonizm deyiladi. Singarmonizm hodisasi faqat turkiy tillardagina uchraydi.

Singarmonizmning ikki turi bor:

1. Tanglay garmoniyasi yoki lingvial garmoniya.
2. Lab garmoniyasi yoki labial garmoniya.

Tanglay garmoniyasi singarmonizmning asosiy turi hisoblanadi. Tanglay garmoniyasida unlilar yumshoqlik yoki qattqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Tanglay garmoniyasi qonuniga ko‘ra so‘zning o‘zagida til oldi unlisi kelsa, so‘z o‘rtasi va oxirida ham til oldi unlisi keladi. O‘zakda til orqa unlisi kelsa, so‘z o‘rtasi va oxirida ham til orqa unlisi keladi, ya’ni o‘zakdagi unlilarga affiks morfemalardagi unlilarning moslashuvi, uyg‘unlashuvi shart. Bu holat so‘zlarning talaffuzida artikulyatsion qulaylikni yaratadi. Masalan: *kelamiz, qyishlag‘ımyız, ortag‘ımyız* kabi.

Lab garmoniyasida unlilarning moslashishi ikki tomonlama bo‘ladi. Bunda unlilar ham til oldilik, ham til orqalik, ham lablashish nuqtai nazaridan moslashadi. So‘zning boshida lablashgan til oldi unlisi bo‘lsa, so‘z oxirida ham lablashgan til oldi unlisi keladi, yoki aksincha. Bunday moslashishni hozirgi qirg‘iz tilida uchratish mumkin. Masalan: *ko‘llo‘r, o‘rdo‘kto‘r* va boshqalar. Lab garmoniyasi o‘zbek tilida deyarli uchramaydi.

Singarmonizm hodisasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida qariyb kuzatilmaydi. Ayrim shevalardagina tanglay garmoniyasi ancha izchil saqlanib qolgan.

Reduksiya (yunoncha *reductio*- «qaytarmoq, orqaga siljitmoq» so‘zidan) hodisasida so‘zning birinchi bo‘g‘inidagi biror unli, odatda tor unli kuchsizlanib talaffuz etiladi. Masalan: *bilak-blak, tilak-tlak, burun-burni, bo‘yin-bo‘yni* kabi.

Bulardan tashqari, soʻz boshida unli tovush orttirilishi- proteza (*roʻza-oʻraza, stol-istol, roʻmol-oʻramol*); soʻz boshida, oʻrtasida yoki oxirida ikki undosh yonma-yon kelganda ular orasida i yoki u tovushining orttirilishi- epenteza (*fikr-fikir, hukm-hukum*); soʻz oxirida bir oʻrinda kelgan ikki undoshdan soʻng a tovushining orttirilishi- epiteza (*bank-banka, tank-tank, kiosk-kioska*); soʻz oʻzagidagi oxirgi undosh yoki unlining tushib qolishi - apakopa (*doʻst-doʻs, xursand-xursan, Samarqand-Samarqan*); soʻz oʻrtasida bir joyda kelgan ikki unlidan birining kuchsizlanib nutqda tushib qolishi- sinerezis (*maorif-mo:rif, saodat-so:dat*) kabi fonetik hodisalar ham uchraydi.

ADABIYOTLAR

1. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. Т. Учитель, 1965.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. Т, Фан, 1966.
3. Шоабдурахмонов ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. Т, Ўқитувчи, 1980.
4. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т, “Ўзбекистон”, 1992.
5. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш. 1-қисм (маърузалар матни), Т. 1999.

Oʻtilgan mavzu boʻyicha savollar

1. Fraza nima?
2. Urgʻu olmaydigan affikslar haqida nimalarni bilasiz?
3. Singarmonizm hodisasi nima?

Tayanch soʻzlar va birikmalar

Nutqning fonetik boʻlinishi; fraza, takt, soʻz, boʻgʻin: urgʻu, singarmonizm – unlilar uygʻunligi demak; tovush oʻzgarishlari, tushishi, orttirilishi.

To'rtinchi ma'ruza. Orfoepiya, grafika va orfografiya

Reja:

1. *Orfoepiya haqida tushuncha.*
2. *O'zbek oroepiyasining me'yorlari.*
3. *Til va yozuv. Yozuvning tarixiy ahamiyati.*
4. *O'zbek yozuvi tarixidan.*
5. *Orfografiya haqida. O'zbek orfografiyasining tamoyillari.*

Adabiy til muayyan fonetik, leksik va grammatik me'yorlarga solinganligi bilan umumxalq tilidan farqlanadi. Bu me'yor talaffuzda ham barcha uchun umumiy bo'lib, undan chetga chiqish o'zaro fikr almashishda har xil qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Orfoepiya (yunoncha *orthos* - «to'g'ri», *epos*- «nutq») tildagi so'z va uning qismlarini adabiy talaffuz etish qoidalari to'plamidan iborat. Talaffuz me'yorlari og'zaki nutqqa xos. Orfoepiya me'yorlari tilning fonemalar tizimi bilan, fonemalarning ma'lum pozitsiyalardagi o'zgarishlari bilan bog'langan.

O'zaro fikr almashish jarayonida to'g'ri talaffuz muhim ahamiyatga ega. Nutq madaniyatining ajralmas bir qismi bo'lgan orfoepiya adabiy talaffuz madaniyatini oshirishga, uni bir tizimga solishga yordam beradi. Orfoepiya talaffuz me'yorlari o'z asoslariga ega bo'lib, u orfografiya me'yorlaridan farq qiladi. Chunki ko'p hollarda so'z va uning qismlari yozilgan shakliga ko'ra talaffuz qilinmaydi. Nutqning yozma shakli qonun-qoidalarini orfografiya belgilasa, og'zaki shakli qonuniyatlarini orfoepiya fani belgilab beradi.

Orfoepik talaffuz me'yorlari adabiy til bilan birga shakllanib, silliqlashib boradi. Avvalgi adabiy talaffuz me'yorlari eski o'zbek adabiy tili asosida yuzaga kelgan bo'lsa, hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlari fan-texnika va madaniyatning taraqqiyoti, yozma va og'zaki adabiy til shakllarining bir-biriga yaqinlashishi natijasida yangidan tashkil topdi. Bunda ekstralingvistik faktorlar (omillar)ning ta'siri kuchli bo'ldi. Adabiy talaffuzning keng yoyilishida radio va televideniye, maorif va o'qitish ishlarining taraqqiyoti katta rol o'ynaydi. Orfoepiyaning yuzaga kelishida orfografiyaning o'zni yetakchi rol o'ynashi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiy talaffuz me'yorlaridan chetga chiqish jonli so'zlashuv va shevalar ta'sirida yuzaga keladi. Bu holat ba'zan radioeshittirish va televideniye ko'rsatuvlarida ham kuzatiladi. Jumladan, boramiz o'rniga borovuz, kelayapman o'rniga kelyapman kabi talaffuz qilish adabiy talaffuz normalaridan chekinishdir. Bu ayniqsa adabiy talaffuz me'yorlarini nafaqat amalda qo'llash, balki targ'ib qilishi kerak bo'lgan radio va televideniya uchrasehi noto'g'ridir. Adabiy talaffuz ko'nikmalarini o'zida shakllantirish har bir madaniyatli kishining vazifasidir. Adabiy talaffuzdan chekinmaslikka, so'zlashuv nutqini sodda va tushunarli aloqa

vositasiga aylantirish, orfoepiya me'yorlariga amal qilishga harakat qilish kerak. Biroq bu borada o'zbek orfoepiyasining qoidalari ilmiy-nazariy jihatdan ishlab chiqilmaganligi va uning hanuzgacha til hayotida va orfoepiyada yuz bergan o'zgarishlardan orqada qolganligi ancha xalaqit bermoqda. Ushbu holat o'zbek adabiy tilining orfoepiya me'yorlarini belgilovchi qoidalari to'plamini yaratishni tilshunos olimlar oldiga vazifa qilib qo'yimoqda.

O'zbek orfoepiyasining me'yorlari

Orfoepiyada og'zaki nutq talaffuzi muhim ahamiyatga ega. Talaffuzni belgilashda tovushlarning to'g'ri aytilishi muhimdir. O'zbek orfoepiyasining me'yorlarini belgilashda fonetikaning, ayrim tovushlar talaffuzi qonuniyatlarining ahamiyati katta. Adabiy tilimiz talaffuzida qoidaga kirib qolgan xususiyatlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. **b** undoshi bilan tugaydigan kitob, oftob, maktab kabi so'zlar, shuningdek, borib, kelib kabi ravishdoshlar oxiridagi **b** tovushi jarangsizlanib **p** tarzida talaffuz qilinadi. Bu hol orfoepiya uchun me'yoriy hodisa hisoblanadi.

2. Maqsad, to'qson kabi so'zlardagi **q** tovushi talaffuzda **x** tarzida aytilsa ham, me'yoriy hodisa hisoblanadi.

3. Samarqand, xursand, baland kabi so'zlardagi oxirgi **d** tovushi **t** tarzida talaffuz qilinishini yoki **d** tovushining tushib qolishi orfoepiya me'yoriga mos keladi.

4. Og'zaki nutqda *kelsa, bo'lsa, bo'lgan, kelgan* kabi so'zlar talaffuzida **l** tovushining tushib qolish hodisasi ham orfoepiya me'yoriga aylangan.

5. Tanbur so'zining tambur, sunbula so'zining sumbula tarzida talaffuz qilinishi ham orfoepiya me'yoridan chekinish bo'lmaydi.

6. Ketdi, aytdi kabi so'zlarning ketti, aytti tarzida talaffuz qilinishi ham adabiy orfoepik me'yorga aylangan.

7. O'zlashgan so'zlar - kiosk, bank, tank kabi so'zlarda bir **a** orttirilib aytilishi ham orfoepik me'yordan chekinish hisoblamaydi.

Biroq oshni o'rniga oshshi, ishni o'rniga ishshi deb talaffuz qilish va o'tta, sho'tta, aqqa, baqqa kabi shakllar orfoepiyaning umumiy me'yoriga kirmaydi.

Shuningdek, chiroq, oyoq, yonoq, yaproq kabi so'zlarning oxiridagi **q** tovushini **g** tarzida talaffuz qilish orfoepik me'yorga to'g'ri kelmaydi. Ravshan, tavsiya kabi so'zlardagi **v** tovushning **f** tarzida talaffuz qilinishi ham orfoepik me'yorlarning buzilishiga olib keladi.

O'zlashma so'zlarda **f** tovushining **p** tarzida talaffuz qilinishi ham ko'p uchraydi: *fabrika-pabrika, telefon-telepon* kabi. Bunday holatlar orfografik me'yorlarning buzilishiga olib keladi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, orfoepiya qoidalarining hali to'liq ishlab chiqilmaganligi adabiy talaffuz me'yorlarining ba'zi paytlarda buzilishiga olib kelmoqda. Bu holat talaffuz va uning me'yorlarini doimiy tarzda kuzatib borish, qoidalarini ishlab chiqish masalasini hal qilishni talab qiladi.

Grafika va orfografiya

Grafika (yunoncha *graphike* - «chizuv», «yozma») harflar va chiziqlar vositasida aks ettirilgan shartli belgilarning muayyan tizimidir.

Harflar nutq tovushlarini ifodalovchi shartli belgilar bo'lib, hozirgi o'zbek yozuvi fonografik yozuv (ya'ni har bir tovush uchun alohida harf olingan) hisoblanadi.

Yozuv jamiyat taraqqiyoti tarixining muayyan davrida ijtimoiy talab asosida paydo bo'ldi. U piktografik, ideografik kabi turlari rivoji jarayonida mukammallashib, hozirgi, fonografik shakli vujudga kelguniga qadar uzoq davrni boshidan kechirdi.

Yozuv tildan keyin jamiyat tomonidan qo'lga kiritilgan eng katta madaniy yutuqlardan biridir. Yozuv bilan til o'zaro aloqadordir. Yozuv tilning eng zaruriy ifodasi, o'zaro fikrlashish va bilim egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozuv tufayli kishi fikri, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar abadiy yashaydi. U zamon va masofa jihatidan og'zaki nutqqa nisbatan katta ustunlikka ega. Yozuvning kashf etilishi bilan yozma adabiyot va yozma adabiy til yaratilishi uchun asos paydo bo'ldi. Bu bilan ma'lum bir davrda yaratilgan tarixiy madaniy-adabiy bitiklarning keyingi davrlarga yetib borishi uchun vosita ham vujudga keldi.

Ma'lumki, nutq ikki shaklga: **a) og'zaki nutq b) yozma nutq** ko'rinishlariga ega. Og'zaki nutq tilning (nutqning) tabiiy holda ko'rinishidir. Yozma nutq esa shu tabiiy nutqning yozuvdagi ifodasidir. Og'zaki nutq fikrni ifodalashining asosiy vositasi bo'lib, o'zining tabiiyligi, ta'sir doirasi va talaffuz xususiyatlariga ko'ra yozma nutqdan jiddiy farq qiladi. Fikrni nutq organlari vositasi bilan ro'yobga chiqarish va eshitish organlari bilan uni uqib, idrok etish og'zaki nutqning asosiy xususiyati bo'lib, nutqning yozma shaklida esa kishilar o'z fikrlarini turli shartli belgilar sistemasi vositasi bilan ifoda qiladi. Shunga ko'ra yozma nutq ma'lum darajada chegaralangan. Ammo jamiyat taraqqiyotidagi o'rni benihoya katta bo'lib, maorif va madaniyatning rivojlanishi, ommaviy axborot vositalarining muhim tarmog'i bo'lgan gazeta va jurnallarning keng nashri munosabati bilan yozuvning roli ham o'sib bormoqda.

O'zbek yozuvi haqida. Markaziy Osiyo xalqlari qadimdan boshlab o'z yozuv madaniyatiga ega bo'lganlar. Ular fonografik (tovush) yozuvning ko'hna shakllari bo'lmish xorazmiy va sug'd yozuvlaridan foydalanganliklari haqidagi ma'lumotlar arxeolog olimlar qo'lga kiritgan moddiy madaniyat yodgorliklari tomonidan tasdiqlangan. Ma'lum bir davrlarda yunon, karoshta, qushon, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, urxun-yenisey, uyg'ur, arab yozuvlari kabi bir qator yozuv shakllaridan ham foydalanildi.

Turkiy qabila va urug'lar orasida turk- runiy (Urxun-Yenisey) yoki «sibir yozuvi» va uyg'ur yozuvlarida ko'plab qimmatli tarixiy yodgorliklar - qabr toshlari, diniy obidalar, huquqiy hujjatlar bitilgan. Urxun-Yenisey yozuvi fonografik (tovush) yozuvining ancha mukammallashgan shakli bo'lib, har bir tovush uchun maxsus shakl qo'llangan.

Turkiy run yozuvlari dastlab Yenisey daryosi havzasida va Mo'g'ulistonning Urxun vodiysida topilganligi uchun Urxun-Yenisey obidalari yozuvi deb ham ataladi. Ilk yodgorliklar XVIII asr boshlarida topilgan bo'lib, ularning o'qilishi XIX asrning oxiriga qadar noma'lumligicha qoldi. 1893 yili daniyalik olim V.Tomsen va rus akademigi V.V.Radlovlar bu yozuvni o'qishga muvaffaq bo'ldilar. Keyinchalik turk-run yozuvi yodgorliklari Talasdan, Farg'ona vodiysi va Zarafshonning yuqori qismidan, hatto Qizilqumdan ham topildi.

70-yillargacha turkiy yozuv eramizning VI-VII asrlarida shakllangan degan fikr yetakchi edi. Biroq 1988 yili Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Lo'mbitepa yodgorligidan topilgan ko'za sirtidagi turkiy bitik VII-VIII asrga oid obidalaridan qariyb I-II asrcha qadimiy ekanligi, yozuvimizning bu turi avval ham amalda bo'lganligini ko'rsatadi.

Turkiy run yozuvi 800-yillarga kelib, uyg'ur yozuviga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Chunki bu yozuvdagi oxirgi bitik 784 - yilga oiddir.

Arab istilolari bilan bog'liq holda VIII asr boshlaridan Markaziy Osiyoda asta-sekin arab yozuvi tarqala boshladi va mahalliy yozuvlar siqib chiqarildi. Shunga qaramay, turkiy xalqlar orasida VI-VII asrdayoq ancha keng qo'llanilgan uyg'ur yozuvi XIV-XV asrlarga qadar amalda bo'ldi. Singqu Seli Tutung(X asr) tomonidan xitoy tilidan tarjima qilingan "Oltin Yoruq" asari, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" asarining XV asrda Hirotida ko'chirilgan nusxasi, Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq", "Muhabbatnoma" (Xorazmiy), "Latofatnoma" (Xo'jandiy), "Maxzanul asror" (Mir Haydar). "Baxtiyornoma", "Me'rojnoma", "Tazkirai avliyo" kabi asarlarning mazkur yozuvda bitilganligi uyg'ur yozuvining uzoq vaqt amalda bo'lganligini ko'rsatadi.

O'zbeklar ming yildan ortiq davr davomida arab yozuvidan foydalandilar. Arab yozuvida bitilgan eng eski turkiy yodgorliklar XI asrga taalluqlidir. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilik» asarining Namangan va Qohira nusxalari, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarlari huddi shunday yodgorliklardir.

Arab yozuvi O'zbekistonda 1928-yilgacha amalda bo'ldi. 1929-yildan boshlab esa o'zbek yozuvi lotin grafikasiga asoslangan alifboga ko'chirildi. Lotinlashtirilgan alifbo o'zbek xalqi hayotida juda katta madaniy, ijtimoiy-siyosiy voqea bo'ldi.

1940-yil 8-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasi kirillitsa asosidagi yangi o'zbek alifbosini qabul qildi. Yangi o'zbek grafikasida rus grafikasidagi barcha harflar (ы,щ harflaridan tashqari) o'zicha va o'z tartibida qabul qilindi. O'zbek tilining o'ziga xos tovushlarini ifodalash uchun qo'shimcha harflar (o', q, g', h) olindi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mamlakatda yuz bergan siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar, yurtimizning xalqaro kommunikatsiyaga aloqadorligining kuchayishi yozuv tizimini isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Bunda keng mehnatkashlar vakillarining istak-xohishlarini hisobga olib hamda 1929-40- yillarda amalda bo'lgan lotin yozuvi tajribalariga tayangan holda lotin

grafikasi asos qilib olindi. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-3- sentyabrda bo‘lgan Oliy Kengashning navbatdagi sessiyasida o‘zbek yozuvini lotin alifbosiga o‘tkazish to‘g‘risida Qonun qabul qilindi. Bunda 31 harf va bitta belgi-tutuq (apostrof) bo‘lib, bu qonunda tavsiya etilgan ba’zi harflar lotin yozuviga to‘liq mos kelmasligi tufayli jahon kommunikatsiya tizimiga kirishimizda juda katta moddiy xarajatlar talab qilinishi, shuningdek, qiyinchiliklar tug‘dirishi ma’lum bo‘ldi. Shuni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1995-yil 6-mayda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risidagi Qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqida” qaror qabul qildi. Bu qarorga ko‘ra, yangi o‘zbek alifbosidagi harflar soni 26 ta harf va uchta harflar birikmasidan iborat deb belgilandi.

Lotincha o‘zbek alifbosi qanday xususiyatlarga ega? Uning qulayliklari nimalardan iborat? degan savollar tug‘ilishi tabiiy. Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosining hususiyatlari quyidagilardir:

1. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi elektron hisoblash texnikasi bilan bevosita bog‘landi. Harflar eng ilg‘or davlatlar qabul qilgan va kodlari 0 dan 127 gacha bo‘lgan harf hamda belgilar tizimiga moslashdi.

2. Bir tovushni ikki yoki uch harf yordamida ifodalagan (ch-, sh-, ng-) tajribasidan foydalanib, jahonda qabul qilingan jadvaldan alifbomiz uchun o‘rin topish imkoniyati tug‘ildi. Buning o‘qitish, bosmaxona ishlari va xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari uchun afzalliklari mavjud.

3. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida «o‘tish» (‘) belgisidan foydalaniladi. Alifbodagi **o‘**, **g‘** tovushlarini ifodalashda foydalanilgan “o‘tish” belgisi lotin yozuvida mavjud va uning kodi 96 hisoblanadi. Bu belgi apostrofga o‘xshasa-da undan farq qiladi, chunki apostrofning (‘) kodi 39 hisoblanadi.

4. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida harflarning turli kombinatsiyalari mavjud emas.

Yangi o‘zbek alifbosi o‘zbek tilining tovush tizimi, uning ohangdorligi, fayzini o‘zida to‘la ifodalashi bilan avvalgi alifbolardan tubdan farq qiladi.

Lotin grafikasiga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi kirillitsadan ham sifat jihatdan, ham son jihatdan, ham tartib jihatidan ancha farq qiladi. Yangi o‘zbek alifbosida harflar quyidagicha joylashtirilgan:

	Harflar	Ularnin g nomlanishi	N	Harfar	Ularni ng nomlanisi
	A a	A		Q q	Qe
	B b	Be		R r	Re
	D d	De		S s	Se
	E e	E		T t	Te
	F f	Fe		U u	U
	G g	Ge		V v	Ve
	H h	He		X x	Xe
	I i	I		Y y	Ye

	J j	Je		Z z	Ze
	K k	Ka		O' o'	O'
	L l	El		G' g	G'e
	M m	Em		Sh sh	She
	N n	En		Ch ch	Che
	O o	O		Ng ng	Nge
	P p	Pe		(,)	Tutuq belgisi

Yangi o'zbek alifbosiga grafemalar (e, ë, ю, я) kiritilmadi. Ularning o'rniga y+e, y+o, y+u, y+a kabi harflarni yonma-yon keltirish qabul qilindi. Shuningdek, yangi alifboda ı harfi, ayirish va yumshatish belgilari tushirib qoldirildi. Ayirish belgili so'zlar o'zlashtirma so'zlarda uchraganligi hisobga olindi. Har qanday tilga o'zlashtirilgan so'z yangi tilning talaffuz qonuniyatlariga bo'ysunishi kerakligi hisobga olinib, yumshatish belgisi ham yangi o'zbek alifbosiga kiritilmadi.

Orfografiya. O'zbek orfografiyasining tamoyillari.

Orfografiya (yunoncha *orthos*- "to'g'ri", *grapō*- "yozaman") tilshunoslikning to'g'ri yozish qoidalari haqidagi bo'limidir.

Adabiy til shevalardan ma'lum me'yorlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu me'yor badiiy asarlar orqali asta-sekin ishlab chiqilib, barcha uchun majburiy bo'lgan so'zlarning adabiy talaffuzi va to'g'ri yozilishi, ularning tuzilishi va urg'usi qoidalari, so'z va so'z shakllari yasalishi qoidalaridan iboratdir. Ma'lum me'yorlarga rioya qilish nutqning aniq, ravon va ravshan bo'lishiga yordam beradi. Orfoepik, orfografik, leksik va grammatik me'yorlar bir-biridan farq qiladi. Orfografik me'yorlar yozma nutqning xarakterli xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Adabiy tilni to'liq egallash uchun til me'yorlarini bilish va unga rioya qilish kerak.

Yozuv rivojlanishi jarayonida til qurilishi bilan uyg'unlashib boradi va biri-biri bilan bog'liq grafika va orfografiya orqali ifodalangan muayyan tizim sifatida shakllanadi. Faqat grafikadan foydalanish bilan o'zaro aloqada maqsadga erishish qiyin. Chunki grafik tizimdan foydalanish so'zning tovush tomoninigina ifodalashi tufayli bir qator qiyinchilik keltirib chiqarishi mumkin. Bu o'rinda orfografik qoidalar yordamga keladi.

Tilning tovush tarkibi uning grafik tizimiga nisbatan ancha murakkabdir. Shuning uchun ular orasida to'liq o'xshashlik bo'lmaydi.

Orfografiya tovush va harflar, so'z va uning ma'noli qismlari, qo'shma so'z qismlarining qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozilishi, bo'g'in ko'chirish hamda bosh va kichik harflarni ishlatish haqidagi qoidalar sistemasidan iborat.

O'zbek orfografiyasining tamoyillari

O'zbek orfografiyasi fonetik, morfologik va an'anaviy tamoyillarga asoslanadi. Ayrim so'zlar differentsiatsiyalash va etimologik tamoyillar asosida yoziladi.

1. Fonetik tamoyilga ko'ra so'zlar talaffuz qilinishiga mos ravishda yoziladi, so'zning talaffuz etilishida yuz bergan o'zgarishlar hisobga olinadi: *qishloq-qishlog'im, og'iz-og'zim, etik-etigi* kabi.

Ayrim kitoblarda hozirgi o'zbek orfografiyasida fonetik tamoyilga juda kam amal qilinadi deyiladi. Lekin amalda fonetik tamoyil yetakchi tamoyillardan biridir. Masalan, tushdi, tushgan so'zlarida **d** ning **t**, **g** ning **k** tarzida eshitilishidan qat'iy nazar **d**, **g** yoziladi. *Xursand, go'sht* so'zlaridagi oxirgi tovushlar tushib qolsa-da, ular yozuvda saqlanadi. «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ning 1995-yil 24-avgustdagi tasdiqlangan qaroriga ko'ra fonetik tamoyilga xos yangi ko'rsatmalar joriy qilindi. Jumladan, kirill alifbosiga asoslangan alifboda *tog'*, *bog'*, *yog'* kabi so'zlarga-ga affiksi qo'shilganda bu so'zlar *toqqa, boqqa, yoqqa* tarzida yozilishi qoida qilib olingan edi. Yangi imlo qoidalari bu holatga alohida e'tibor berilib, **k** va **q** tovushlari bilan tugagan so'zlarga **-gacha, -ga, -gach, -gani, -gin, -gina** qo'shimchalarining bosh tovushi **k** yoki **q** tarzida aytilishi va yozilishi ko'rsatilib, qolgan hollarda so'z qanday tovush bilan tugashi va bu qo'shimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** eshitilishdan qat'iy nazar, **g** yozilishi belgilab qo'yildi: *tog'ga, bog'ga, yog'ga* kabi. Demak, bu holatda morfologik tamoyilga amal qilish kerak bo'ladi.

2. O'zbek orfografiyasida morfologik tamoyilga ko'ra so'z va uning qismlari qanday talaffuz qilinishidan qat'iy nazar, umumiy, yagona shaklda yoziladi. So'zlarning ma'noli qismlari, morfemaning yagona tarzda yozilishiga quyidagilar misol bo'la oladi: *ketdi, chopdi, yigitchilik*.

O'zbek tilida juda ko'p so'zlar aytilishi va yozilishi bir-biriga to'g'ri kelmaydi (amonim-omonim, mator-motor, daslab-dastlab, doktor-doktor kabi). Shuning uchun so'zlarning bir xil yozilishini ta'minlashda o'zbek orfografiyasining yetakchi tamoyillardan bo'lgan morfologik tamoyildan foydalanish qulaydir.

3. An'anaviy tamoyilda so'z va morfemalar qadimdan an'anaga aylanib qolgan qoidalar asosida yoziladi. Bu tamoyilga ko'ra ham so'zning aytilishi uning yozilishidan farq qiladi. Lekin bunda morfologik tamoyildagi singari morfemaning yagona shakllanishi grammatik qoidaga amal qilinmaydi. Aksincha, so'zlarning harfiy ifodasi ularning tarixan o'zlashib, singib ketgan shakliga teng keladi: Chor Rossiyasi, cherkov, pudratchi, fahm muomila (muomala o'rniga), kabutar (kaptar o'rniga).

Og'zaki nutqda yoki talaffuzda bir-biridan aniq farqlanmaydigan yoki o'zaro farqlari deyarli sezilmaydigan darajaga kelib qolgan so'zlar yozuvda maxsus qoida bilan ajratilib yoziladi. Ilgari og'zaki nutqda deyarli bir xil aytilib kelingan ba'zi so'zlar, shakllar yoki affikslarni yozuvda bir-biridan farqlash uchun **differensiatsiyalash tamoyilidan** foydalaniladi. Masalan, 1956-yilga qadar **-lik** va **-li** affiksi deyarli farqlanmay qo'llanilar edi. 1956-yildan boshlab **-lik** tegishlik ma'nosini, **-li** egalik ma'nosini ifodalash uchun qo'llana boshlandi. Masalan: *shaharlik, samarqandlik-otli, to'nli, uyli* kabi. So'zlar affikslariga ko'ra ham farqlana boshlandi (masalan: bo'shlik (ot, yuvoshlik)-bo'shliq (ot, bo'sh joy, fazo).

Soʻzlar qaysi xalqning tilidan yoki grafikasidan olingan boʻlsa, oʻsha qadimgi etimologik yoki grafik holatini saqlab qolgan holda yozish **etimologik yoki grafik shakliy tamoyil** asosida yozish deyiladi. Masalan, Aʼzam, sheʼr, Abdujabbor, arxeologiya, foye, fabrika, tank, disk kabi.

Soʻzlarni qoʻshib, chiziqli orqali va ajratib yozish orfografiyaning alohida qismi hisoblanadi.

Oʻzbek orfografiyasi mamlakatimiz madaniyatining taraqqiyoti bilan bogʻliq holda takomillashib, nazariy va amaliy jihatdan katta yutuqlarni qoʻlga kiritdi.

ADABIYOTLAR

1. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. Т,Учитель, 1965.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм.Т, Фан, 1966.
3. Шоабдурахмонов ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм.Т, Ўқитувчи, 1980.
4. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т, “Ўзбекистон”, 1992.
5. Фридрих И. История письма. М., Наука, 1979.
6. Гельб И.Е.Опыт изучения письма. М.,Радуга, 1982.

Oʻtilgan mavzu boʻyicha savollar

1. Orfoepiya fani nimani oʻrganadi?
2. Oʻzbek yozuvi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Yangi lotin alifbosi asosidagi oʻzbek yozuvining qanday afzallik tomonlari bor?
4. Orfografiyaning nechta tamoyili bor? Ular haqida nimalarni bilasiz?
5. Etimologik tamoyil nima?

Tayanch soʻzlar va birikmalar

Orfoepiya- adabiy talaffuz qoidalari, adabiy talaffuz meʼyorlaridan chetga chiqish, b undoshining soʻz oxirida jarangsizlanishi, sunbula soʻzining sumbula tarzida talaffuz qilinishi, yozuvning qoʻlga kiritilgan madaniy yutuq ekanligi, nutqning ogʻzaki va yozma shakli, Oʻzbekiston yozuvlari tarixi, 1993- yil 2-sentyabrda yangi oʻzbek alifbosi haqida Qonun, morfologik tamoyil asosiy orfografik tamoyillardan ekanligi.

Beshinchi ma'ruza. Leksikologiya va semasiologiya

Reja:

1. *Leksikologiya va uning ob'ekti. Semasiologiya.*
2. *So'zning leksik ma'nosi. Qo'shimcha nozikliklar (ottenkalar). Monosemiya va polisemiya. So'z semantik tuzilishining o'zgarishi.*
3. *So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari.*

Leksikologiya (yunoncha *lexis* “so‘z”, *logos*- “ta’limot” so‘zlaridan) tilning lug‘at boyligini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Tilshunoslikning leksikologiya sohasi so‘z ma’nosining o‘zgarishi, ya’ni so‘z ma’nosining kengayishi, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlari, ularning hududiy va ijtimoiy qatlamlari, yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi va boshqa masalalarni o‘rganadi. Leksikologiya semasiologiya, onomastika, etimologiya, frazeologiya, leksikografiya kabi bo‘limlarni ham o‘z ichiga oladi.

Semasiologiya (yunoncha *sema*- “ma’no” yoki “belgi”, *logos*- “ta’limot”). So‘zning semantik tarkibi shu so‘zga xos ma’nodan iborat bo‘ladi. Leksikologiyani ma’no tomonlarini o‘rganuvchi soha semasiologiya deyiladi.

Har qanday so‘z o‘z shakli va ma’nosiga ega bo‘ladi. Demak, har qanday so‘z shakl va ma’no butunligiga ega: odam, ona, qizil, oq, kulmoq, yurmoq kabi. Tildagi so‘zlarning ko‘pchiligi borliqdagi narsa, belgi yoki harakat haqidagi tushunchani bildiradi: gul, kitob, issiq, yashil, chopmoq, yemoq kabi. Yordamchi so‘zlar (bilan, uchun, va, yo, yoki) tushuncha ifodalamaydi. Tushuncha ifodalaydigan so‘zlar leksik, ya’ni lug‘aviy ma’noga ega bo‘ladi. Leksikologiyada xuddi shu turdagi so‘zlar, semasiologiya esa shu turdagi so‘zlarning ma’nosi va u bilan bog‘liq hodisalarni o‘rganadi.

So‘zlarning leksik (lug‘aviy) ma’nosi. So‘zlarning borliqdagi narsa, belgi yoki harakat haqidagi ma’lumoti leksik yoki lug‘aviy ma’no deyiladi. Masalan, gul so‘zi predmet haqida, qizil so‘zi ma’lum belgi haqida, kulmoq so‘zi ma’lum harakat haqida ma’lumot beradi. Demak, so‘zdan nima anglashsa, shu uning lug‘aviy ma’nosi bo‘ladi.

Lug‘aviy ma’noli so‘zlar narsa, belgi yoki harakatning o‘zini emas, balki ular haqidagi tushunchani ifodalaydi. Tushuncha esa narsa, belgi, harakat kabilarning inson ongidagi umumiy in’ikosidir.

So‘zlarning qo‘shimcha ma’no nozikliklari (ottenkalari). So‘zning semantik tarkibidagi qo‘shimcha ma’no nozikliklari emotsional-ekspressiv buyoq va uslubiy belgidir.

Emotsional-ekspressiv ottenka so‘zning lug‘aviy ma’nosiga qo‘shimcha tarzda sub’ektning his-tuyg‘usi, kayfiyati va shu kabi munosabatlarni ifodalashdir.

Lug‘aviy ma’no so‘zning semantik tarkibida bo‘ladi. Emotsional-ekspressiv ma’no esa so‘z semantikasida bo‘lishi shart emas. Masalan, xunuk so‘zi hech

qanday emotsional-ekspressiv ma'noga ega emas. Badburush so'zi esa xunuk so'zi anglatgan ma'no bilan birga salbiy munosabat ham ifodalaydi, ya'ni emotsional-ekspressiv ma'no nozikligiga ega.

Uslubiy belgi esa so'zning vazifaviy uslublardan biriga tegishliligini ko'rsatadi. Biroq uslubiy belgi ham so'z semantikasida albatta bo'lishi shart emas. Masalan, ozod so'zi barcha uslublar uchun neytral bo'lgani holda, xuddi shu ma'noni bildiruvchi sarbast so'zi kitobiy uslubga xosdir. *Shuningdek, raqqos, metropoliten, moviy, afsus so'zlari kitobiy uslubga xos bo'lsa, xuddi shu ma'nodagi o'yinchi, metro, ko'k, attang so'zlari so'zlashuv uslubiga xosdir.*

So'zlarda monosemiya va polisemiya hodisalari. So'z paydo bo'lishida bir ma'noli bo'ladi. Biroq davr o'tishi bilan u bir ma'noli bo'lishdan tashqari, ko'p ma'nolilik kasb etishi mumkin. Demak, so'zlar bir ma'noli bo'lishdan tashqari, ko'p ma'noli ham bo'lishi mumkin. Tilshunoslikda bir ma'nolilik hodisasi *monosemiya*, ko'p ma'nolilik hodisasi *polisemiya* deb ataladi. Ko'p ma'noli so'zlar bosh ma'noga ega bo'lib, bosh ma'no so'z nutqdan tashqari, alohida olinganda yoki nutq jarayonida ko'proq qaysi ma'noda qo'llanilishiga ko'ra aniqlanadi. Ko'p ma'noli so'zlarning muayyan ma'nolari nutqda aniqlanadi.

Til hodisasi sifatida ko'p ma'nolilikning ahamiyati katta. Shuning uchun tilshunoslikda ko'p ma'nolik hodisasiga alohida e'tibor beriladi. Umumiste'moldagi so'zlarning ko'pchiligi polisemantik, ya'ni ko'p ma'nolidir. Ko'p ma'nolik qariyb barcha so'z turkumlariga xos. Masalan: *kishining ko'zi, daraxtning ko'zi, buloqning ko'zi, uzukning ko'zi, kosani ter, tartib bilan ter, toza ter, kasalning tili, «til» tutib kelish, bo'zchilar tili* kabi. Ko'p ma'nolilik ikki yo'l bilan paydo bo'ladi:

1. So'zning yangi ma'no kasb etishi natijasida.

2. Ko'p ma'noli so'z yoki ko'p ma'noli affiks yordamida so'z yasash natijasida. Yasama so'zning ko'p ma'noli bo'lishida ko'p ma'noli so'zning ishtirokiga quyidagi misollarni keltirish mumkin: *ovozi pasaydi, davomat pasaydi, tuzsiz gap, tuzsiz osh* kabi.

Yasovchi affiksning ko'p ma'noliligi sababli yasama so'zning birdan ortiq ma'noga ega bo'lishiga misol tariqasida «yog'li» so'zini keltirish mumkin: *Yog'li qo'lini sochiqqa artdi. Yog'li palov.*

Ko'p ma'noli so'z qancha ma'noga ega bo'lmasin, bu ma'nolar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ko'p ma'noli so'z ma'nolari orasidagi aloqa uzilsa, omonim vujudga keladi. Masalan: *Senga gapim bor. -Bugun juma bo'lgani uchun Hakimboyvachcha va Mirzakarimboy o'z ulfatlarinikiga - gapga ketishgan.* (O.)

Qayd qilganimizdek, bir ma'nolilik so'z paydo bo'lishning dastlabki davrlariga, ko'p ma'nolik esa keyingi davrga xos.

Tilning barcha sohalarida bo'lganidek, uning lug'aviy ma'nosida ham o'zgarish yuz beradi. Lug'aviy ma'no odatda bir predmet, belgi, harakatning nomini boshqa predmet, belgi, harakatga ko'chirish yo'li bilan rivojlanadi. So'z ma'nosi ko'chish usullarining asosiylari quyidagilardir: metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik.

Biror narsa, belgi yoki harakat nomini o‘zaro o‘xshash bo‘lgan boshqa narsa, belgi yoki harakatga ko‘chirish **metafora** (yunoncha *methaphora*- «ko‘chma nom», «ko‘chirish») usuli bilan yangi ma’no hosil qilish deyiladi. Masalan: *fevralning etaklari - choponning etagi; odamning og‘zi - shishaning og‘zi; achchiq qalampir - achchiq gap; yer cho‘kdi - qariganda cho‘kdi* kabi.

Narsa, belgi yoki harakat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik asosida nom ko‘chirish **metonimiya** (yunoncha *metonimia*- «qayta nomlash» so‘zidan) deb ataladi. Masalan: *Navoiyni o‘qimoq, butun qishloq ko‘chib chiqdi, zal oyoqqa turdi, institut yig‘ildi* kabi.

Butunning nomi bilan uning qismini yoki aksincha qism bilan butunni atash orqali yangi ma’no hosil qilish **sinekdoxa** (yunoncha *synekdoxa*- «nazarda tutish» so‘zidan) deyiladi. Masalan: *tirnoqqa zor, tuyuq sonini ko‘paytirmoq, qo‘limni kesib oldim, samovarga chiqmoq, suvsar telpak* kabi.

Bir-biriga o‘xshamaydigan predmetlarning bajaradigan vazifasidagi birlik asosida nom ko‘chirish vazifadoshlik asosida nom ko‘chirish deyiladi. Masalan, *qalam* so‘zi tarixan qamish yoki patdan yasalgan yozuv qurolini bildirgan. Vazifasi bir xil bo‘lganligi uchun grafitli yozuv quroli ham qalam deb ataladigan bo‘ldi. *Siyoh, o‘q* so‘zlari haqida ham shunday fikr bildirish mumkin.

Shuningdek, lingvistik omillar asosida ham yangi ma’noli so‘zlar hosil bo‘ladi. Bularga ellipsis va kalkalash usullari kiradi.

Aslida so‘z birikmasiga teng bo‘lgan birlikning bir komponenti tushib qolishi natijasida shu birikmaga xos ma’no bir so‘zning o‘ziga taalluqli bo‘lib qoladi. Bu hodisaga ellipsis deyiladi. Masalan: *ugra oshi - ugra, qiz bola - qiz* va hokazo.

Boshqa tildan so‘zning ma’nosini o‘z tili elementlari orqali o‘zlashtirish kalka usuli bilan so‘z hosil qilish deyiladi: *dvores iskusstv – san’at saroyi, zaochnoe obuchenie - sirtqi o‘quv* kabi.

So‘zlarning shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlari

Tildagi so‘zlarning ma’lum qismi shakl va ma’nosiga ko‘ra o‘zaro aloqador birlikni tashkil qiladi. Bunday birliklarning turlari quyidagilardir: a) omonimlar, b) omofonlar, d) omograflar, e) paronimlar, f) sinonimlar, g) antonimlar.

Talaffuzi bir xil bo‘lgan so‘zlar omonimlar, ya’ni shakldosh so‘zlar hisoblanadi. (yunoncha *homos*- “bir xil” va *onyma* “ism” so‘zidan). Shakldoshlar deyarli bir xil yoziladi. Chunki ularning tovush tarkibi bir xildir. Bir xil so‘z turkumiga mansub bo‘lgan shakldosh so‘zlar grammatik formalar bilan shakllanganda o‘zaro omonimlik xususiyatini saqlashi mumkin.

Masalan: *ot1+lar,+im,+ning,+ni,+ga,+i*

ot2+lar,+im,+ning,+ni,+ga,+i

yoz1+dim,+ding,+gin,+dik

yoz2+dim,+ding,+gin,+dik kabi.

Bu shakldoshlar har xil lug‘aviy ma’no ifodalasa ham o‘zaro omonim bo‘lib kelaveradi. Hozirgi o‘zbek tili shakldoshlari orasida ichki ma’no bog‘liqligi yo‘q.

Shakldoshlarni ko'p ma'noli so'zlardan farqlash lozim. Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari orasidagi ichki bog'liqlik sezilib turadi.

Shakldoshlar quyidagicha hosil bo'ladi:

1. Turli talaffuzli, fonetik tarkibi farqlanadigan so'zlarning bir xil talaffuz etilishidan yuzaga keladi: *o't (maysa)*, *o't (olov)*.

2. So'z ma'nosidagi siljish natijasida paydo bo'ladi: *dam (nafas)*, *dam (hordiq)*, *dam (bosqon)*.

3. Boshqa tillardan so'z olish natijasida paydo bo'ladi: tojikcha *bog'* (daraxtzor) va o'zbekcha *bog'* (bog'laydigan narsa).

Shakldoshlik iboralarida, shuningdek, affiks morfemalarda ham uchraydi. Shakldoshlardan badiiy asarlarda, jumladan, she'riyatda keng foydalaniladi. Shakldoshlar yordamida she'riyatda tuyuqning go'zal namunalari yaratilgan.

Omofonlar. Fonetik tarkibida ma'lum tovush farqli, lekin talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlar omofonlar deyiladi. Masalan: *tup-tub*, *bod-bot*, *yod-yot*, *mard-mart* kabi.

Omograflar. Yozilishi bir xil bo'lgan, ammo fonetik tarkibi ham, talaffuzi ham har xil bo'lgan so'zlar omograflar deyiladi. Masalan: *tol* (daraxt) -*tol* (qurilish material), *tok* (uzum) - *tok* (elektr quvvati). Ko'rinadiki, omograflar ma'nosi, fonetik tarkibi, talaffuzi jihatidan boshqa-boshqa so'zlardir. Yozilish shaklining bir bo'lishi esa o'zaro farqli fonemalar uchun imloda ayni bir harf qabul qilinishi natijasidir. Bu fonemalarning har biri uchun alohida harf qabul qilinsa, omograf yo'qoladi.

Paronimlar. Fonetik tarkibi boshqa-boshqa, talaffuzda o'xshash, yaqin bo'lib qolgan so'zlar paronimlar deyiladi. Masalan: *fakt-pakt*, *afzal-abzal*, *devon-dovon*, *diplomat-diplomant* kabi. Paronimiya adabiy talaffuz me'yorlarini, shuningdek, so'zlarning fonetik tarkibini bilmaslik oqibatida sodir bo'ladi.

Shakldoshlar, omofon, omograf va paronimlarda ikki yoki undan ortiq so'zning o'zaro birlik hosil qilishi shakliy munosabatga, talaffuzga ko'ra bo'lib, ularning ma'no jihati hech qanday ahamiyatga ega emas.

Ma'nodoshlar (sinonimlar). Fonetik tarkibi har xil, ma'nosi bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar sinonimlar (yunoncha *sinonimiya* - «bir xil ma'nodagi nom») deyiladi. Masalan: *aylanmoq-kezmog-sayr qilmoq*; *xushbuy-muattar-hidli* kabi.

Bir umumiy (birlashtiruvchi) ma'nosi bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar guruhi sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topishi mumkin: *zavq -shavq -maroq* kabi.

Sinonimik qatordagi asosiy so'z dominanta termini bilan yuritiladi. Dominanta sinonimik qatordagi boshqa so'zlarga nisbatan uslubiy jihatdan betarafligi va nutqda ko'proq qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Masalan: *chiroyli* - *go'zal* -*xushruiy* -*zebo* -*barno* -*sohibjamol* sinonimik qatoridagi «*chiroyli*» so'zi dominanta, asosiy so'zdir.

Sinonimlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. To'liq sinonimlar. Ma'no sifatiga ta'sir qilmay, bir-birining o'rnida ishlatila oluvchi sinonimlar to'liq sinonimlar deyiladi. Masalan: *tilshunoslik - lingvistika, meditsina - tibbiyot* kabi.

2. Ma'noviy sinonimlar. Bunday sinonimlar bir-biridan nozik ma'nosi bilan farq qiladi. Masalan: *nam, ho'l, shalabbo; tiqillatdi, taqillatdi, do'qillatdi, gursillatdi; kuldi, jilmaydi, iljaydi, tirjaydi* singari.

3. Kontekstual sinonimlar. Nutq situatsiyasi yoki kontekstda ma'nolari jihatidan bir-birining o'rniga ishlatila oluvchi sinonimlar kontekstual sinonimlar deb ataladi: *shoir, yozuvchi, adib* kabi.

4. Uslubiy sinonimlar. Bunday sinonimlar ma'lum bir uslubda qo'llanib, boshqa uslubda qo'llanmasligi bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan: *keldi, tashrif buyurdi, bahor, ko'klam* kabi.

5. Grammatik sinonimlar: aqlli – baaql.

6. Shartli sinonimlar: Nega kerak shu chiroy, shu o't, shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq?

Sinonimlar faqat bir xil so'z turkumi doirasida mavjud bo'ladi. Sinonimlar tilda yangi so'zlarning paydo bo'lishi va mavjud so'zlarning yangi ma'noda qo'llanishi tufayli vujudga keladi.

Yangi so'zlar so'z o'zlashtirish va affikslar yordamida so'z yasash orqali hosil bo'ladi. Masalan, *limon, investitsiya, limonzor, buyruq, yozuvchi* kabi.

Shuningdek, tilda bor bo'lgan so'zlar asosida yaratilgan, ya'ni ma'no ko'chishi asosida yaratilgan so'zlar ham bor. Masalan: *vazifa-topshiriq, farq - ayirma, maosh - moyana - oylik* kabi.

Antonimlar yoki zid ma'nolik. O'zaro qarama-qarshi (zid) ma'noli so'zlar antonimlar (yunoncha *anti* "zid", "qarshi" va *onyma* "ism" so'zlaridan) deyiladi. So'zlarning bunday munosabatda bo'lish hodisasi antonimiya deyiladi: *yaxshi - yomon, katta - kichik, past - baland* kabi.

So'zlarning o'zaro antonimik munosabati so'z ma'nosidagi zidlikka asoslanadi. Polisemantik so'z har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin. Masalan: *qattiq - yumshoq, saxiy, halim; ochiq - yopiq, qattiq, xasis* kabi.

Bir so'z sinonimik qatordagi har bir so'z bilan yoki o'zaro shakldosh so'zlar boshqa shakldosh so'zlar bilan o'zaro zid ma'noli bo'lishi mumkin. Masalan: *xafa* so'zi *xursand-shod-xushnud* sinonimik qatoridagi har bir so'z bilan antonimdir; *chiroyli-go'zal-xushruy-zebo* sinonimik qatoridagi har bir so'z *xunuk-badbashara-tasqara* sinonimik qatoridagi har bir so'zga zid munosabatda bo'la oladi.

Konkret predmetlarni bildiruvchi so'zlar (televizor, kofe, mayiz), atoqli otlar, sonlar, bir qator olmoshlar (men, u, bu, allakim) kabilarning zid ma'nolisi, antonimi bo'lmaydi. Demak, zid ma'nolilar bir-biriga qarama-qarshi tushunchalarni anglatishlari kerak.

Zid ma'nolilik turli so'z turkumlarida uchraydi. Masalan: *issiq-sovuq, yoz-qish, yaxshi-yomon, uzoq-yaqin* kabi. Biroq zid ma'nolilik hodisasi ko'proq sifat so'z turkumiga xos.

Zid ma'noli so'zlar badiiy adabiyotda tasviriy vosita sifatida keng qo'llanadi. Shuningdek, xalq maqollari, iboralarida ham antonimlardan ko'p foydalaniladi. Masalan: *Yaxshi topib gapirar, yomon qopib*.

Zidlik munosabati bir so'z turkumi doirasida yuz beradi: *odobli, beodob, baxtli-baxtsiz, uzoq-yaqin* kabi.

ADABIYOTLAR

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм.Т, Фан, 1966.
2. Шоабдурахмонов ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм.Т, Ўқитувчи, 1980.
- 3.Акобиров О.Ф Тил ва терминология.Т.,Билим,1968.
- 4.Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т, “Ўзбекистон”, 1992.
- 5.Усмонов С.Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. Т., Ўқитувчи, 1968.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Leksikologiya fani nimani o'rganadi?
2. Leksik ma'no nima?
3. Metafora, metonimiya, sinekdoxa terminlarini qanday tushunasiz?
4. Omonimiya hodisasi nima?

Tayanch so'zlar va birikmalar

Leksikologiya so'zlarning lug'aviy ma'nolarini ... , Ob'ektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat haqida ma'lumot, leksik ma'noga qo'shimcha ma'lumot, ko'p ma'nolilik, o'xshashlik asosida nom ko'chishi, aloqadorlik asosida nom ko'chishi, qism bilan butunni .

Oltinchi ma'ruza.
Leksikologiya.o'zbek tili lug'at tarkibida o'z,ozlashgan va
chegaralangan qatlam

Reja

1. O'zbek tili lug'at tarkibida o'z qatlam va o'zlashgan qatlam.
2. Tarixiylik jihatdan o'zbek tili lug'at tarkibi.
3. Umumiy va chegaralangan leksika. Umumiste'moldagi so'zlar.
4. Emotsional-ekspressivlik va uslubiy jihatdan o'zbek tili leksikasi.

Ozbek tili lug'at tarkibida o'z va o'zlashgan qatlam.Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibidagi so'zlarning paydo bo'lishi va kelib chiqish manbai turlichadir.

Har bir til o'z lug'at tarkibi va grammatik qurilishiga ega bo'ladi. Biroq xalqlar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va lisoniy aloqalar ularning tillariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu holat, ayniqsa, tilning lug'at tarkibida yaqqol seziladi. Barcha tillar singari o'zbek tilida ham bu hodisa yuz bergan bo'lib, buning natijasida tilimizning lug'at tarkibida o'ziga xos qatlam bilan birga boshqa tillardan o'zlashgan qatlam ham ko'plab uchraydi.

O'z qatlamga turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar bilan birga o'zbek tilining o'ziga xos bo'lgan so'zlar kiradi. Masalan: *tog', tosh, yer, suv, oq, qora, bosh, bir, ikki, uch* kabi.

Shuningdek, o'z qatlamni o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingan yasama so'zlar ham tashkil etadi. Bular:

a) o'zbekcha so'zlardan o'zbekcha qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlar: *suvoqchi, temirchi, terimchi, qo'llanma*;

b) o'zlashma so'zlardan o'zbek tili vositalari yordamida hosil qilingan so'zlar: *limonzor, mardlik, ovqatlanmoq*;

d) boshqa tillardan o'tgan yasovchi vositalar yordamida o'z va o'zlashgan so'zlardan hosil qilingan so'zlar: *tilshunos, kitobxon, ultratovush* kabi.

Demak, yasama so'z qismlaridan biri o'zga tilga oid bo'lsa ham, yasalma so'z shu tilning o'zida yaratilgan bo'lsa, bu so'z o'z qatlamga tegishli so'z hisoblanadi.

Boshqa xalqlar bilan uzoq yillar davomida yonma-yon yashash, o'zaro siyosiy-ijtimoiy, savdo-sotiq aloqalarining olib borilishi natijasida o'zbek tiliga juda ko'p tillardan ma'lum miqdorda so'zlar o'zlashgan. Bular:

Tojikcha: *osmon, oftob, bahor, barg, kam, chala, agar, ham...*

Arabcha: *kitob, maktab, xalq, hayot, amma, rais, xuquq, ovqat, nomus, shifo.*

Ruscha baynalmilal: *brigada, televizor, agronom, radio, teatr, leksiya* singari so'zlardir.

O'tmishda arab va tojik tillaridan so'z o'zlashtirish faol bo'lgan.

Soʻz oʻzlashtirish asosan ikki usul bilan yuz beradi: 1) Soʻz aynan olinadi. 2) Kalkalab olinadi. Kalkalab olishda soʻzning oʻzi emas, uning maʼnosi oʻzlashtiriladi. Bunda:

1. Boshqa til soʻziga xos maʼno zamirida ona tili materiali bilan yangi soʻz yasaladi: *darslik* (uchebnik), *qatnashchi* (uchastnik). Soʻz oʻzlashtirishning bunday usuli toʻliq **kalka** deyiladi.

2. Soʻz tarkibida oʻzga tilga oid soʻz bilan birga oʻz til qismlari ishtirok etadi: *hamkurs* (sokursnik), *sportchi*. Bu turdagi kalkalar **yarim kalka** deyiladi.

3. Semantik kalka. Oʻzbek tilida bir qancha soʻzlar shu maʼnoda qoʻllanadigan begona tildagi soʻzlarning maʼnolariga qarab, yangi maʼnolar olib semantik, yaʼni maʼno jihatidan kengaygan (semantik kalka). Misollar: *akkumulyator oʻtirib qoldi* (oʻtirdi-sel, jonli soʻzlashuv nutqida), *quyon* – biletsiz yoʻlovchi, *bu yigit imtihonda yiqildi* (provalilsya) kabi.

Tarixiylik jihatdan oʻzbek tili lugʻati

Davr oʻtishi bilan tildagi ayrim soʻzlar eskirib, isteʼmoldan chiqib ketadi, shu bilan bir paytda tilda yangi soʻzlarning paydo boʻlishi ham kuzatiladi.

Eski soʻzlar jami eskirgan qatlamni, yangi soʻzlar jami yangi qatlamni tashkil qiladi. Shuningdek, tilning lugʻat tarkibida eskilik va yangilik buyogʻiga ega boʻlmagan hamda zamonaviy qatlam deb ataladigan qatlam ham mavjud.

Tarixiylik nuqtai nazaridan oʻzbek tili lugʻat tarkibi zamonaviy qatlam, eski qatlam va yangi qatlamga boʻlinadi. Zamonaviy qatlam umumisteʼmoldagi soʻzlar yoki faol soʻzlar deb yuritiladi. Eskilik va yangilik buyogʻiga ega boʻlmagan soʻzlar zamonaviy deb yuritiladi.

Eski qatlam tarixiy soʻzlar va arxaizmlarga boʻlinadi. Tarixiy soʻzlar yoki istorizmlar tarixga oid soʻzlar (hozirgi kunda yoʻq narsa-hodisalarning nomini bildiruvchi)dir.

Jamiyatning rivojlanishi bilan uning iqtisodi, madaniyati, turmush tarzi oʻzgarib boradi. Yangi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar paydo boʻladi. Jamiyatning taraqqiyoti jarayonida yoʻqolib, oʻtmishga aylangan narsa va hodisalarning nomlari istorizmlarga, yaʼni tarixiy soʻzlarga aylanadi. Tarixiy soʻzlar turli guruhlariga boʻlinadi. Jumladan, harbiy istorizmlar: mingboshi, yuzboshi, jiba, sovut, qalqon; kundalik turmushga doir narsa-hodisalarni ifodalovchi istorizmlar: omoch, paranji, moʻndi va boshqalar.

Istorizmlarning maʼnosi hozirgi davr kishisi uchun tushunarsiz boʻlishi mumkin. Istorizmlar tarixiy asarlarda koʻproq qoʻllanadi.

Baʼzi soʻzlar maʼnosida semantik siljish boʻlsa bunday soʻzlar zamonaviy hisoblanadi. Masalan: *Boy choʻchib oʻzini chetga oldi. Iskandar xonadagi boy jihozlariga nazar tashlab qoʻydi.* (O.)

Arxaizmlar. (yunoncha *arhaios*- «qadimgi»). Hozirda mavjud (zamonaviy) narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamaları arxaizmlar deb ataladi. Masalan, *ulus* (xalq), *firqa* (partiya), *tilmoch* (tarjimon), *oblast* (viloyat), *rayon* (tuman) kabi. Arxaizmlar bildirgan narsa-hodisalar hozirgi davrda mavjud boʻlganligi sababli

ularning yangi atamaları eskilarini siqib chiqaradi. Talabga ko'ra biri qolib, ikkinchisi iste'moldan chiqib ketgan bo'ladi.

Tildan butunlay chiqib ketgan so'zlar o'miq (ko'krak), budun (xalq), bitik (kitob) kabilar "o'lik" so'zlar deb yuritiladi.

Neologizmlar. Neologizm atamasi "yangi so'z" ma'nosidadir. (yunoncha neos- «yangi»). Lingvistik adabiyotlarda bu atama odatda tilda yangilik belgisi (buyog'i) sezilib turgan so'zlarga nisbatan qo'llanadi. Prezident, yurtboshi, biznes, ijarachi, firma, investitsiya, kadastr kabi so'zlar neologizmlar bo'lib, ular bugungi kunda umumxalq ishlatadigan so'zlar qatoriga qo'shilmoqda.

So'zlarning "neologizm" sifatidagi holati ko'p davom etmaydi. Agar so'z to'g'ri tanlangan bo'lsa va tildan o'z o'rnini mustahkam topsa, u odatdagi so'zga aylanib, neologizm bo'lishdan chiqadi, umumxalq ishlatadigan so'zlar qatoriga kiradi. Demak, yangilik buyog'ini yo'qotgan so'zlar zamonaviy qatlamga o'tadi. Neologizmlar miqdori oz.

Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi (umumtil neologizmi), shuningdek, yakka shaxs nutqiga xos (individual nutq neologizmi) bo'lishi mumkin.

Neologizm lug'aviy birliklarda ham, grammatik hodisalarda ham mavjud. Shunga ko'ra ular ikki turli bo'ladi:

1. Lug'aviy neologizmlar-lug'aviy birlikdagi turi: *qayta qurish, paxta yakkazi roatchiligi, ma'muriyatchilik* kabi.

2. Grammatik neologizm-grammatik hodisalardagi turi. Grammatik neologizm tilda juda oz uchraydi. Grammatik neologizmlar grammatik ma'no ifodalovchi affikslar doirasi bilan chegaralanadi. Masalan: **-yap** affiksi aslida so'zlashuv nutqiga xos (dialektal) shakl bo'lib, endilikda u adabiy nutqning og'zaki shakliga xos deb tan olindi. Hozir esa adabiy tilning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun asosiy shaklga aylandi.

Umumiy va chegaralangan leksika

Tildagi so'zlarning qo'llanish darajasi turlicha bo'ladi. Ba'zi so'zlar ko'pchilik kishilar tomonidan qo'llanilsa, ba'zilari ma'lum hududda yashovchi yoki ma'lum kasb-hunar bilan shug'ullanuvchi kishilar tomonidan qo'llanadi. Shu jihatdan o'zbek tilidagi so'zlar ikki turga bo'linadi: iste'mol doirasi chegaralangan so'zlar va umumiste'moldagi so'zlar.

Iste'mol doirasi chegaralangan so'zlar uch turga bo'linadi:

1. Dialektal so'zlar. 2. Terminologik so'zlar. 3. Jargon va argo.

Ma'lum hududda yashovchi kishilar nutqiga xos bo'lgan, adabiy til lug'at boyligiga kirmaydigan so'zlar dialektal so'zlarni tashkil qiladi. Ma'lum dialekt va sheva vakillari qo'llaydigan bunday so'zlar dialektizmlar deb yuritiladi. Masalan: *dangim* (Gurlan)-tos, *karvich* (Xorazm)-g'isht, *doyi* - tog'a, *taka* - yostiq kabi.

Terminologik so'zlar. Ilm-fan, texnika, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarga oid tushunchalarning aniq atamasi bo'lgan so'z va so'z birikmalari termin (atama) deyiladi. Har bir fan, kasb-hunar o'z terminlariga, shu terminlar

jamidan iborat soʻzlarga ega. Bunday maxsus soʻzlar terminologiya deb ham yuritiladi: *fizika terminologiyasi, lingvistik terminologiya, tibbiyot terminologiyasi* kabi.

Terminlar muayyan sohaga tegishli boʻlsa-da, sohaga aloqador boʻlmagan kishilar tomonidan qoʻllanishi va ularga tushunarli boʻlishi (masalan, bugʻdoy, sahna, aktyor), shuningdek, maʼlum qismi shu soha bilan shugʻullanuvchi kishilarga tushunarli boʻlishi, faqat mutaxassislar tilida qoʻllanishi mumkin: *fonema, oʻzak, oksidlar, indikator* kabi.

Umumisteʼmoldagi ayrim soʻzlar terminga aylanishi mumkin: ot, ega. Demak, bir soʻz umumisteʼmoldagi soʻz ham, termin ham boʻlishi mumkin. Koʻrib oʻtganimizdek, terminlar alohida guruhlariga, ilmiy terminlar va professional terminlarga ajratiladi.

Maʼlum kasb-hunarga va mutaxassislikka oid monosemantik soʻzlar professional soʻzlar sanaladi: *kulolchilik* (angob, loya, taqsir), *poyafzalchilik* (bigiz, qolip, shopchoʻp, sogʻi), *kashtachilik* (popop, yoʻrma, bichiq) kabi.

Ilmiy terminlar: *tilshunoslik* (urgʻu, morfema, fonema, allofon), *tarix* (melodiy, arxiolit), *geografiya* (boʻgʻoz, qoʻltiq) singari.

Jargon va argo. Jargonlar sinfiy ayirmachilikni koʻrsatib beradigan, yuqori tabaqa vakillari uchun tushunarli boʻlgan soʻz va iboralardir. Jargonlar oʻzbek tilining oʻz soʻzlaridan, baʼzan boshqa tillardan (arab va tojik) olinib, qoʻllangan soʻzlardir. Oʻtmishda oʻzbek tilida ayrim jargonlar mavjud boʻlgan. Kishilar oʻzlarini boshqalardan yuqori tutish, oʻz maqsadlarini yashirish uchun jargonlarni qoʻllaganlar. Masalan: *Bizga ziyofat malhuz emas, neʼmati jannatni keltir.* (H.H.) Malhuz emas-mulohaza qilingan emas, neʼmati jannat-yor, mahbub. *Avomunnosning koʻziga sallai bomujarrad koʻrinish bilan inon va ixtiyori qoʻldan ketadir.* (H.H.)

Argolar qiziqishi, mashgʻulotlari, yoshlari bir xil boʻlgan juda tor doiraga mansub kishilar qoʻllaydigan soʻzlar. Ular umumxalq tiliga oid soʻzlardan boʻlsa-da, bunday soʻzlar keng xalq ommasiga tushunarli boʻlmaydi. Otarchi, bezori va boshqalarning oʻz argolari boʻladi. Masalan, *yakan* (pul), *joyi* (yoʻq)-otarchi; *loy* (pul), *shabas* (menga berib yubor)-oʻgʻri; *zamri* (jim boʻl), *atanda* (qoch)-bezorilar tiliga xos argolardir. Argolar davr oʻtishi bilan oʻzgarib turadi.

Oʻzbek tili lugʻat tarkibidagi soʻzlarning asosiy qismini maʼnosi shu tilda soʻzlashuvchilar uchun tushunarli boʻlgan va umumiy qoʻllanish xususiyatiga ega boʻlgan soʻzlar tashkil etadi. Bularning koʻpchiligi umurturkiy va oʻzbekcha soʻzlardan iborat. Shuningdek, boshqa tillardan oʻzlashgan boʻlishi ham mumkin.

Emotsional-ekspressiv jihatdan oʻzbek tili lugʻat tarkibi

Til asosan kommunikativ vazifa bajarsa-da, kishilar aloqa-aralashuv jarayonida ifodalanayotgan fikrga oʻzlarining turli emotsional munosabatlarini ham bildiradilar. Tilda bularni ruyobga chiqarish imkoniyatlari mavjud: lugʻat tarkibida ifodalanayotgan fikrga soʻzlovchining turli munosabatlarini anglatishga

xizmat qiladigan, shunga xoslangan soʻzlar bor. Shu nuqtai nazardan oʻzbek tili leksikasini ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Emotsional-ekspressiv buyoq nuqtai nazaridan oʻzbek tili leksikasi.
2. Uslub nuqtai nazaridan oʻzbek tili leksikasi.

Emotsional-ekspressiv buyoqsiz soʻzlarda lugʻaviy maʼnodan tashqari soʻzlovchining turli munosabatlarini ifodalovchi qoʻshimcha maʼno boʻlmaydi: *ayb, bosh, urmoq, xunuk* kabi soʻzlar narsa, belgi, harakatning oʻzini ifoda etadi, bularda soʻzlovchining hech qanday munosabati ifodalanmaydi. Shu sababli bu turdagi soʻzlar neytral leksika deb ham yuritiladi.

Emotsional-ekspressiv buyoqdor soʻzlar narsa, belgi, harakatga bahosini, turlicha munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, *bosh, xunuk, yuz, qoniqmoq* soʻzlari narsa, belgi harakatning oʻzini bildirishi bilan birga ularning maʼnodoshlari boʻlgan *kalla, badbashara, chehra, miriqmoq* soʻzlari shu narsa, belgi, harakatga soʻzlovchining turlicha munosabatini ham ifodalaydi.

Emotsional-ekspressiv soʻzlar suyish, erkalash, gʻazab, kinoya, tan berish va boshqa munosabatlarni ifodalaydi. Bu munosabat asosiy belgisiga koʻra ijobiy va salbiy boʻladi. Shunga koʻra emotsional-ekspressiv buyoqdor soʻzlar ikki turga boʻlinadi: **a) ijobiy emotsional-ekspressiv buyoqdor soʻzlar, b) salbiy emotsional-ekspressiv buyoqdor soʻzlar.**

Ijobiy emotsional-ekspressiv buyoqdor soʻzlar soʻzlovchining narsa, belgi yoki harakatga boʻlgan turlicha ijobiy munosabatini ifodalaydi: *Ona deganimda oqsoch jafokash, Munis va mehribon chehrang namoyon.* (G'.G'.)

Salbiy emotsional-ekspressiv buyoqdor soʻzlar soʻzlovchining narsa, belgi yoki harakatga boʻlgan mensimaslik, nafrat singari salbiy munosabatlarini ifodalaydi: *U bir koʻngli borib, muttaham qozining tumshugʻiga tushirgisi keldi.* (M.I.)

Soʻzlarning ijobiy yoki salbiy narsa-hodisalarni ifodalashini ularning ijobiy yoki salbiy buyoqqa egaligidan farqlash kerak. Masalan, yaxshi, chiroyli, shirin soʻzlari ijobiy belgilarni, ularning antonimlari yomon, xunuk, achchiq soʻzlari salbiy belgilarni bildirsa-da, emotsional-ekspressiv buyoqqa ega emas. Chunki ular ijobiy va salbiy belgilarni bildirganlari bilan, shu belgiga qoʻshimcha tarzda turli munosabatlarni ifodalamaydi.

Uslubiy jihatdan oʻzbek tili leksikasi lugʻat tarkibidagi soʻzlar vazifaviy uslublarga befarq munosabatda boʻlishi yoki uslubning biror turiga mansub boʻlishi mumkin. Shu jihatdan oʻzbek tili leksikasi ikki turga boʻlinadi: uslublararo soʻzlar (yoki uslubiy neytral soʻzlar) va uslubiy xoslangan soʻzlar.

Uslublararo soʻzlarda uslubning biror turiga mansublik belgisi boʻlmaydi, shuning uchun ular uslubning barcha turlarida babbaravar qoʻllanaveradi: *togʻ, non, yuz, ming, faqat* kabi.

Uslubiy xoslangan soʻzlar uslubning maʼlum turiga oidligi, qoʻllanishi asosan shu uslub doirasi bilan chegaralangan boʻlishi bilan xarakterlanadi: kitobiy soʻzlar, badiiy soʻzlar va oddiy soʻzlashuv soʻzlari.

Kitobiy soʻzlarga publitsistik, ilmiy va rasmiy ish uslublariga xos soʻzlar kiradi: *publitsistik uslubga xos soʻzlar* (ishtirok, ilgʻor, sarlavha, rubrika); *ilmiy uslubga xos soʻzlar* (tenglama, uchburchak, urgʻu), *rasmiy ish uslubiga xos soʻzlar* (buyruq, talabnoma, dalolatnoma) kabi.

Badiiy soʻzlarga badiiy nutqqa xos, badiiylik xususiyatiga ega boʻlgan soʻzlar kiradi. Masalan, *Yaxshi qoling, sevgan yurtu diyorum* (H.O.)

Oddiy soʻzlashuv soʻzlariga oddiy, erkin muomalada qoʻllanadigan, adabiy til uchun u darajada norma (meʼyor) deb qaralmaydigan soʻzlar kiradi. Masalan: *ketvorgan, poʻrim, qittay, mullajiring* kabi. *Jillaqursa juvoldiz bilan qarashay dedim.* (O.) *Maza qilib, kartoshkani tushirib tursang, kabi. Menda-chi, ichkaridagi ikkita eski mijozdan ayrilib, yaqinda keladigan poshshoxonni oʻzimga qanday qilib elantirishning gʻami.* (H.H.)

ADABIYOTLAR

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. Т, Фан, 1966.
2. Шоабдурахмонов ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. Т, Ўқитувчи, 1980.
3. Ақобиров О.Ф Тил ва терминология. Т., Билим, 1968.
4. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т, “Ўзбекистон”, 1992.
5. Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. Т., Ўқитувчи, 1968

Mavzu boʻyicha savollar

1. Oʻzbek tili leksikasining oʻz va oʻzlashgan qatlamlari haqida nimani bilasiz?
2. Kalka nima? Toʻliq kalka, yarim kalka va semantik kalka haqida gapiring.
3. Zamonaviy qatlamning oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Istorizm va arxaizmlarga nimalar kiradi?
5. Umumiy va chegaralangan leksikaning guruhlariga nimalar kiradi?
6. Jargon va argolar haqida nimalarni bilasiz?
7. Emotsional-ekspressiv jihatdan oʻzbek tili leksikasi qanday turlarga boʻlinadi?

Tayanch soʻzlar va birikmalar

Oʻtmishga oid soʻzlar, turmushda mavjud narsa-hodisalarning nomlari, dialektizm, jargon va argolar maʼlum guruhlarga oid, avval, bosh-kalla, badbashara, mazza, buyruq, talabnoma.

Yettinchi ma'ruza. Frazeologiya

Reja:

1. *Frazeologiya haqida. Frazeologizmlarning semantik tuzilishi. Frazeologik polisemiya. Frazeologizmlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari. Shakldoshlik, ma'nodoshlik, zid ma'nolik.*

2. *Frazeologiyada o'z va o'zlashgan qatlam. Umumiy va chegaralangan qatlam. Tarixiylik jihatdan o'zbek tili frazeologizmlari. Frazeologizmlarning uslubiy guruhlari.*

Frazeologiya (yunoncha *phrasis*- «ibora» so'zidan) tilshunoslikning frazeologik birliklarni, ya'ni iboralarni o'rganuvchi bo'limidir.

Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ko'chma ma'no ifodalaydigan til birligi frazeologizm yoki frazema (ibora) deyiladi. Masalan: o'ziga bino qo'ymoq, ko'zining tagiga olmoq, ko'zi och, ko'zi to'q, og'zi qulog'ida singari.

Leksikologiya tilning lug'at tarkibini o'rgansa, frazeologiya iboralarni o'rganadi. Lug'at tarkibida til birligi so'z bo'lsa, frazeologiya tarkibida til birligi iboradir. Tilning lug'at boyligi so'z va iboradan iborat. So'z ham, ibora ham lug'aviy birlik hisoblanadi.

Frazeologizmlar birdan ortiq so'zdan tashkil topishi bilan so'z birikmasi va gap ko'rinishida bo'lsa-da, til birligi sifatida (so'z birikmasi va gap nutq birligidir) so'zlarga yaqin turadi. Shuning uchun so'zlarga xos ko'pgina xususiyatlar iboralarga ham xosdir.

Frazeologizmlar nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki xuddi so'zlar kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Demak, frazeologizmlar nutq hodisasi emas, til hodisasi.

Ibora asosan nominativ vazifa bajaradi, shunga ko'ra u so'zdan yirik nominativ birlik hisoblanadi. Tuzilishiga ko'ra esa ibora so'z birikmasi va gapga teng bo'ladi. Masalan, bir so'zli, turgan gap, ko'nglini olmoq kabi iboralar o'z tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga teng bo'lsa, boshi qotdi, ko'zlari qinidan chiqib ketdi iboralari gapga teng.

Iboralar ham so'zlar kabi shakl va ma'no butunligiga ega. So'zning shakliy tomonini tovushlar hosil qilsa, iboralarning shakliy tomoni so'zlardan iborat.

Iboralarning tarkibiy qismlari faqat shakl-tovush tomoni bilan so'z holida bo'ladi. Ammo ibora tarkibida u ma'no butunligiga ega bo'lmaydi. Shuning uchun ibora tarkibidagi biror so'z iste'moldan chiqqan bo'lsa ham, ibora yo'qolmaydi, boshqa bir til birligiga aylanmaydi, ma'nosi ham o'zgarmaydi. Masalan: *Shanba kuni Qo'tirdala tomonidan ko'tarilgan chang odamlarning enka-tinkasini chiqarib yubordi.* (Mirm.) *Bir kun sahar mardonda kelib, yotgan yerimda «voh» deb naq o'takamni yorgan edi.* (H.Nazir)

Iboralar lugʻaviy birlik boʻlganidan, xuddi soʻzlar kabi, gapda bir boʻlak vazifasida keladi. Misollar: *Men peshona terimga tayangan odamman.* (Sh.Rashidov) *Sohib qori bir-ikki tomoq qirsa ham, xotini pinagini buzmaydi.* (I.Rahim) Birinchi gapda ibora aniqlovchi, ikkinchi gapda kesim vazifasida kelgan.

Baʼzi iboralar tuzilish jihatidan gap shaklida boʻladi. Lekin ular ham nutqda gapning bir boʻlagi vazifasida keladi: *Oʻsha soʻzimiz-soʻz. Zuhra Karimovaning ham oldidan oʻtdim.* (S.Anorboev)

Keltirilgan misollar iboralarning soʻzlarga xos xususiyatlarga ega ekanligini koʻrsatadi.

Iboralarning semantik tarkibi

Iboralarning semantik tarkibi frazeologik maʼno va qoʻshimcha maʼno nozikliklari (ottenkalari)dan iborat.

Belgi, harakat haqida ibora ifodalaydigan maʼlumot frazeologik maʼno deyiladi. Masalan: *Hamma jihatdan yordam beramiz, yengingizni shimarib ishga tushavering.* (S.Abduqahhor) *Sizning bu oshnangiz, yomon bir gʻaraz bilan boʻlsa kerak, mening orqamdan tushibdi.* (S.Ayniy) Birinchi misoldagi ibora belgi, ikkinchi misoldagi ibora esa harakat bildirmoqda.

Frazeologik maʼno lugʻaviy maʼnodan farq qiladi, shuning uchun ular bir-biriga teng boʻlmaydi. Chunki iboralar oʻz sinonimlari boʻlgan soʻzlarga nisbatan maʼnoni kuchli ifodalash va obrazlilik ottenkasiga egaligi bilan ajralib turadi. Masalan: *oʻtaketgan-uchchiga chiqqan, yashirin -eng ichida* kabi.

Frazeologik maʼnoning hajmi lugʻaviy maʼnoning hajmiga nisbatan keng va murakkab boʻladi. Koʻpgina iboralarning maʼnosida soʻzning maʼnosida yoʻq komponent boʻladi. Masalan: yer-koʻkka ishonmaslik oddiygina ardoqlash emas, oʻta darajada ardoqlashdir. Demak, bu iboraning maʼnosida «oʻta (ortiq) darajada» komponenti bor.

Koʻpgina iboralarning bildiradigan maʼnolarini bir soʻz bilan ifodalab boʻlmaydi. Masalan: *Qildan qiyiq topib janjal chiqaradi.* (S.Ahmad) ... *madrasani yelkamning chuquri koʻrsin...* (M.Ism.)

Iboralarning maʼnosi uning qismlarining toʻgʻri maʼnosi uyushmasidan iborat boʻlmaydi. Bunga sabab iboralarning soʻz birikmasi tarkibidagi biror soʻzni yoki butun birikmani maʼlum bir obraz asosida koʻchma maʼnoda qoʻllash yoʻli bilan hosil boʻladi, uning maʼnosi ham shu yoʻl bilan yuzaga keladi. Masalan: *Siz yaramas odamsiz! Sizda vijdon degan narsa yoʻq! Koʻzimning yogʻini yeb, boshimga ish tushganda qochdingiz.* (S.Ahmad)

Iboralar komponentlarining koʻchma maʼnoda qoʻllanishi asosida yuzaga kelgan boʻlsa, frazeologik maʼnoni uning tarkibidagi soʻz maʼnolaridan keltirib chiqarish mumkin. Masalan: *aqlini yemoq, yoʻldan urmoq, gap tegmoq* kabi. Baʼzi iboralar ifodalaydigan maʼno soʻz birikmasi bildiradigan belgi, harakatdan mantiqan kelib chiqadi. Bunday iboralar maʼnosini tarkibidagi soʻzlar maʼnolari umumlashmasidan keltirib chiqarib boʻlmaydi. Masalan: *Nimaga bu hadeb tutun qaytaradi, arpasini birov xom oʻribdimi?* (A.Q.) Arpani xom oʻrmoq zarar ekanligini aniq. Arpasini xom oʻrmoq iborasi «yomonlik qilmoq» maʼnosida

ekanligi ko‘rinib turibdi. Bunday iboralar ma‘nosi tarkibidagi so‘zlar ma‘nolari umumlashmasidan kelib chiqmaganligi uchun tarkibidagi so‘z o‘rnida boshqa so‘z qo‘llansa ham ma‘no o‘zgarmaydi. Masalan: *U ko‘p o‘tmay boshimda tosh chaqishni boshladi. Hamma ish uning buyrug‘i bilan bo‘ldi...* (O.) *Boshida ikki bukilib, keyin miyada danak chaqqanidan shu tuzuk.* (I.Rahim)

Ibora va uning ma‘nosi so‘z birikmasini yaxlitligicha ko‘chma qo‘llash asosida hosil bo‘lishi mumkin. Bunday iboralarning ma‘nosini ham komponentlari ma‘nolaridan chiqarib bo‘lmaydi. Masalan: *Gapdonlikka kelganda Bozorboy ham sen bilan meni bir cho‘qishda qochiradi.* (P.T.) Parrandaga xos, unda bo‘ladigan harakatni insonga nisbatan qo‘llash natijasida ibora yuzaga kelgan. Bu ibora parrandaga nisbatan ishlatilganda bir cho‘qishda qochirmoq erkin so‘z birikmasi hisoblanadi.

Ba‘zi so‘z birikmalari biron harakat-hodisaning sababi (natijasi) sifatidagi harakat-hodisani bildiradi. Bunday yo‘l bilan hosil bo‘lgan iboralarning ma‘nosini ham tarkibidagi so‘zlar ma‘nosidan keltirib chiqarib bo‘lmaydi. Masalan: *Uning noma‘qul ishlari haqida ko‘p gaplar eshitsa-da, tishini tishiga qo‘yib yuraberdi.* («Mushtum») *Shunday hiyla bilan berardimki (zaharni), tabiblar barmog‘ini tishlab qolardi...* (O.) Tishni tishga qo‘yish qattiq azobga chidash berish, barmoqni tishlash esa natijasiz qolib afsuslanishda bo‘ladigan harakatlar. Bu so‘z birikmalarining iboralarga aylanishida sabab (asos)ning mavjudligi ularning erkin so‘z birikmalariga yaqinligini saqlab qolgan.

Ba‘zi iboralar rivoyat, aqida, tushunchalar bilan bog‘liqdir. Masalan, ... *ko‘zim uchib turgan yo‘q edi-ku, qayoqdan bilib chiqa qoldingiz.* (R.F.)

Oddiy xalq o‘rtasida «ko‘z uchsa» biror hodisa yuz beradi degan tushuncha bor. Ko‘zi uchmoq iboralarining ma‘nosi ana shu tushunchaga bog‘lanadi.

Demak, iboralarning kelib chiqish yo‘llari, ular ifodalaydigan ma‘noning asosi turlicha bo‘lib, faqat komponentlarining ko‘chma ma‘nosiga asoslangan iboralar ma‘nosinigina tarkibidagi so‘zlar ma‘nolari asosida izohlash mumkin. Boshqa yo‘llar bilan yuzaga kelgan iboralar ma‘nosini tarkibidagi so‘zlar ma‘nolaridan keltirib chiqarib bo‘lmaydi. Lekin frazeologik ma‘no yaxlit bo‘lib, tarkibidagi so‘zlar ma‘no mustaqilligiga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun ayrim iboralarning komponentlari o‘zgarsa ham, frazeologik ma‘no saqlanadi. Masalan: *Axir hali burnini eplab artolmaydigan bir go‘dak uning yuziga oyoq qo‘ysa-ya!* (S.Anorboyev) *Shundoq mehribon opang bor ekan, seni odam deb yo‘qlab kelgan ekan, nega yuziga oyoq tirading* (H.Nazir) kabi.

Iboralar lug‘aviy birlik sifatida polisemantiklik xususiyatiga ega va o‘z sinonimlik, antonimlik, omonimlik qatorini tarkib toptiradi. Ko‘p ma‘nolilik hodisasi leksikada juda taraqqiy etgan. So‘zlarning juda ko‘p qismi ko‘p ma‘nolidir. Frazeologiyada esa unday emas. Iboralarning asosiy qismi bir ma‘nolidir. Lekin ikki yoki undan ortiq ma‘noga egalik iboralarda ham uchraydi.

Iboralar o‘zi biror birikma yoki gapning ko‘chma ma‘noda qo‘llanishi tufayli hosil bo‘lishiga qaramay, yana semantik taraqqiy etishi va ko‘p ma‘noli bo‘lishi mumkin. Masalan, jonini olmoq ob‘ektili birikma qolipli ibora izohli

frazeologik lugʻatda uch maʼno bilan qayd etilgan. Ular quyidagichadir: 1. Oʻldirmoq. *Ha, men Azroilman, Qoʻchqor doʻstingning jonini olgan edim.* (S.Anorboyev) 2. *Ruhan qattiq ezib yubormoq. Safarqulning bu savollari Shokir uchun jon oluvchi eng oxirgi va dahshatli zulm edi.* (S.Ayniy). 3. *Jismonan juda qattiq azoblamoq. Bezgak qurgʻur jonimni oldi.* (S.Zunnunova). Bu frazeologizmning 2 va 3 maʼnolari 1 maʼnodan metonimik yoʻl bilan hosil boʻlgan va uch maʼno polisemantik frazeologizmni tarkib toptirgan. Yana: *Bu kunlarda jangchi goh oʻziga kelib, goh behush boʻlib yotdi.* (As.M.) *Ayb menda, -dedi Joʻra dangal. –Ana endi oʻzingga kelding.* (N.S.)

Iboralarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari

Xuddi leksikada boʻlgani kabi frazeologiyada ham omonimiya, sinonimiya, antonimiya kabi hodisalar bor.

Omonimiya. Iboralarda omonimlik bir xil komponent (soʻz)lardan tuzilgan iboralar oʻzaro bogʻlanmagan (tamoman boshqa-boshqa) maʼno ifodalashi koʻrinishida namoyon boʻladi. Ular oʻzaro aloqasiz ikki ekstralingvistik sabab tufayli yuzaga kelib, oʻzaro bir-biriga aloqasi boʻlmaydi. Masalan, ustidan chiqmoq birikmasi bir oʻrinda «biror narsa qilinayotganda tepasiga borib qolmoq» maʼnosidagi iboradir. Valixon endi uning bu yengiltakligi ustidan chiqib, butunlay oʻzini yoʻqotib qoʻygan edi. (Sh. Toshmatov) Bu birikmadan ikkinchi bir oʻrinda «bajarmoq» maʼnosi asosida ibora yasalgan: *Hakimov telefonda bergan soʻzining ustidan chiqibdi.* (P.Qodirov) Yana: *Elmurod... chugʻurlashib uyni boshiga koʻtargan bolalarga qayrildi.* (P.Tursun)... *kun peshindan oqqanda, choʻl changgini boshiga koʻtarib, qandaydir mototsikl chiqib qoldi.* (Sh.Gʻulomov) *Siz xalqimizning baxt-saodati uchun kurashdingiz. Xalqimiz sizni hurmatlab, olqishlar bilan boshiga koʻtaradi.* (Oydin)

Sinonimiya. Iboralarda sinonimiya hodisasi ham kuzatiladi. Bu hodisa iboralarda maʼno taraqqiyoti bilan bogʻliq holda yuzaga kelgan. Masalan: «*joni xalqumiga keldi*» iborasi bilan «*esi chiqib ketdi*» iborasi oʻzaro sinonimdir. Bu iboralar «*nihoyatda qattiq qoʻrqmoq*» maʼnosiga koʻra maʼnoviy bir xillikka ega. *Mol doktori desa, «jonimiz xalqumimizga keladi»* gapidagi ibora bilan *Xuddi tomning tepasi qars yorilganday qarsilladi. Saidgʻozining esi chiqib ketdi* (S.Anorboev) gapidagi «*esi chiqib ketdi*» iborasi oʻzaro sinonimdir. Faqat birida tasviriylilik, ikkinchisida his-hayajon ustunligi bilan farq qiladi. Yana: *Tojiboy oʻz qiliqlari bilan uning sabr-kosasini toʻldirdi.* (P.Tursun) *Qabulxonada kutib oʻtiraverib toqati toq boʻlgan arzuylar rais oldiga kirishga intiladilar.* (N.S.)

Lugʻaviy birlik sifatida iboralar soʻzlar bilan ham sinonimik munosabatda boʻlaoladi. Masalan: *kayfi buzuk-taʼbi xira-xafa, koʻngil bermoq-yaxshi koʻrmoq-sevmoq* kabi.

Antonimiya. Qarama-qarshi maʼno ifodalovchi iboralar antonimik iboralar deyiladi. Masalan: *istarasi issiq* iborasi *soʻxtasi sovuq* iborasi bilan oʻzaro ziddir. Birinchisi «*jozibador*» maʼnosini anglatasa, ikkinchisi «*yoqimsiz*» maʼnosini anglatadi. Masalan: *Sahna toʻrida chiroyli bir kishi paydo boʻldi. Istarasi issiq edi.* (M.Ismoilij) va *Xumoxon yomon koʻradi soʻxtasi sovuq Rahmonqulovni.*

(A.Muxtor) gaplarida buni yaqqol ko‘rish mumkin. Yana: *Ahli majlis Otabekni ko‘klarga ko‘tarib maqtar edi.* (A.Qodiriy) *Ular ham necha yil non-qatiq bo‘lgan raislarini yerga urdilar.* (Sh.Rashidov)

Frazeologiyada o‘z va o‘zlashgan qatlam ham mavjud. Biroq iboralarining asosiy qismi o‘z qatlamga oid bo‘lib, o‘zlashgan qatlam juda kam. Buning asosiy sababi iboralarini o‘zlashtirishda kalka usulining yetakchi ekanligi sabab. Ming yillar davomida yonma-yon yashab kelayotgan tojik tilidan o‘zlashgan iboralar o‘zbek tilida ancha salmoqli. Biroq tojik tilidan o‘zlashgan iboralarini aniqlash birmuncha qiyin. Chunki bu ikki xalq hayoti, turmush tarzidagi umumiy jihatlar shunchalik ko‘pki, natijada bu holat iboralarida ham o‘z aksini topgan. Misol tariqasida darsliklarda keltirilgan *g‘isht qolipdan ko‘chdi-xisht az qolib barxestan, qaysi shamol uchirdi-kadom shamol parrond, boshi toshdan bo‘lsin-sarash az sang shavad* kabi iboralar fikrimizni tasdiqlaydi. *Temirni qizig‘ida bos, panja orasidan qaramoq* singari rus tilidan o‘zlashgan iboralar soni esa kam.

Xuddi so‘zlardagi singari iboralarida ham umumiy va chegaralangan qatlam mavjud. Iboralarining ko‘pchiligi umumiste‘molga oid. Ilm-fan, kasb-hunar kabilarning ma‘lum sohasidagina qo‘llanadigan iboralar yo‘q hisobida. Iboralarining ko‘pi paydo bo‘lishida inson faoliyatining ma‘lum sohasi bilan bog‘langan bo‘lsa-da, keyin umumiste‘mol qatlamiga o‘tib ketadi. Masalan: *alifni kaltak deyaolmaslik, tegirmoniga suv qo‘ymoq, pichoq suyakka yetdi, dam bermoq* kabi.

Chegaralangan qatlamni asosan dialektal iboralar tashkil qiladi. Masalan: Toshkent viloyati shevalaridan: *toqi chalmoq* (ovoza qilmoq), *tirnog‘iga g‘arov yugurtirmoq* (qattiq azob bermoq): Samarqand viloyati shevalaridan: *qora yerni bosib turmoq* (tirik yurmoq), *mushugini pisht demoq* (xalaqit bermoq), *jag‘ini yemoq* (ko‘p gapirmoq) va hokazo.

Iboralar so‘zlar kabi eskirishi, iste‘moldan chiqishi, yangilarining esa paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Iboralarda eskirgan qatlam va yangi qatlam so‘zlardagiga nisbatan juda kam.

Eski qatlamga oid iboralarini mumtoz adabiyotga tegishli asarlarda uchratamiz. Jumladan, Navoiy asarlarida uchraydigan quyidagi iboralar bugungi kunda eskirgan qatlamni tashkil etadi:

*Yo ulus ichra yuz suyini sochib,
Yo olibon boshin bir yon qochib.*

(«Hayratul abrор»)

yuz suyini sochib – obruyini yo‘qotib

*Lahza-lahza chiqtimu chektim yo‘lida intizor
Keldi jon og‘zimgayu ul sho‘xi badxu kelmadi.*

(«Badoye‘ul vasat»)

joni og‘ziga kelmoq – joni xalqumiga kelmoq

*Gar tabassum vaqtida ko‘rsang labin, ey bog‘bon,
Yelga bergaysen, qilib gulbargi xandoningni jam’.*

(«Badoe‘ul-vasat»)

yelga bergaysen – shamolga uchirasen

Demak, eskirgan qatlarga doir iboralarning hozirgi o'zbek tilidagi variantlari mavjud bo'lib, mazkur hodisa til taraqqiyoti bilan bog'liq holda yuz bergan.

Iboralar uslubga nisbatan betaraf yoki uslubning biror turiga oid bo'lishi bilan ham farqlanadi. Lekin iboralarning asosiy qismini uslubiy neytral, betaraf turi tashkil qiladi. Vazifaviy uslubning biror bir turiga mansub iboralar soni juda kam.

Uslubiy xoslangan iboralarga *amalga oshmoq* (rasmiy), *barq urmoq*, (badiiy uslub), *quling o'rgilsin* (oddiy so'zlashuv uslubi) kabilarni ko'rsatish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Hozirgi ўzbek adabiy tili. 1-qism. T, Фан, 1966.
2. Шоабдурахмонов ва бошқалар. Hozirgi ўzbek adabiy tili. 1-qism. T, Ўқитувчи, 1980.
3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Hozirgi ўzbek adabiy tili. T, “Ўзбекистон”, 1992.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Frazеologiya fani nimani o'rganadi?
2. Iboralar nima uchun til hodisasi hisoblanadi?
3. Frazеologizmlar tarkibida so'z ma'no butunligiga ega bo'laoladimi?
4. Frazеologizm so'zdan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
5. Frazеologik omonimiya, sinonimiya, antonimiya deganda nimani tushunasiz?

Tayanch so'zlar va iboralar

Ibora til birligidir, ibora nominativ ma'no anglatadi, ibora tarkibiga ko'ra so'z birikmasi yoki gapga teng, ibora so'z singari tilda tayyor holda bo'ladi, Frazеologik ma'no belgi, harakat haqida ibora ifodalaydigan ma'no, frazeologizmlarda ma'noning kuchli ifodalanishi, frazeologik polisemiya: eskini yamaguncha esing ketadi, kayfi buzuvchi ta'biy tirr, ko'kka ko'tarmoq, yerga urmoq, temirni qizig'ida bos, keldi jon og'zimga-yu.

Sakkizinchi maruza.

Leksikografiya

Reja

1. *Leksikografiya fani haqida.*
2. *Lugʻatlar oldiga qoʻyilgan talablarga koʻra turlari.*
3. *Ensiklopedik lugʻatlar.*
4. *Lingvistik lugʻatlar va ularning xususiyatlari.*
5. *Umumiy va maxsus lugʻatlar.*
6. *Mustaqillik davri oʻzbek tili lugʻatchiligi.*

Tilshunoslikning lugʻatlar va ularni tuzish bilan shugʻullanuvchi sohasi leksikografiya (yunoncha *lexicon*- “lugʻat” va *grapho*- “yozaman” soʻzidan) deyiladi.

Soʻzlarning biror maqsadda toʻplanib, tartibga solingan yigʻindisi lugʻat deyiladi. Lugʻatlar turli maqsadlarda tuziladi. Lugʻat oldiga qoʻyilgan talablar ularning turlarini belgilaydi.

Lugʻatlar ikki nuqtai nazardan tiplarga boʻlinadi: 1. Soʻzligining tuzilishi nuqtai nazaridan .2. Hajm nuqtai nazaridan.

Tuzilishi nuqtai nazaridan lugʻat tiplari. Bunday

lugʻatlar ikki turga boʻlinadi: **1) ensiklopedik (qomusiy) lugʻatlar. 2) lingvistik yoki filologik lugʻatlar.** Lugʻatning bu turlari alifbo tartibida tuzilgan soʻzlikka ega boʻlib, qoʻyilgan maqsad, soʻzligining xarakteri va boshqa jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Lingvistik lugʻatlarning soʻzligi soʻz va iboralardan iborat boʻladi. Ensiklopedik lugʻatlarning soʻzligida esa soʻzdan boshqa birliklar ham boʻladi. Lingvistik lugʻatlarda soʻz boyligi aks ettiriladi. Bunday lugʻatdan maqsad soʻz va iboralarning semantik mazmunini tavsiflashdir. Bundan tashqari, qisman grammatik va fonetik maʼlumotlar ham beriladi. Soʻzning qaysi turkumga mansubligi, biror grammatik shaklda cheklanganligi, shakl hosil qilish mobaynida yuz beradigan fonetik jarayonlar, oʻzgarishlar, urgʻulanish kabilar.

Lugʻat maqolasining asosiy qismini soʻz maʼnolarining talqini egallaydi. Avval soʻzning bosh maʼnosi berilib, agar boʻlsa shundan soʻng bu soʻzning koʻchma maʼnolari tasvirlanadi. Maʼno tasvirida berilgan misollar badiiy asarlardan olinsa, lugʻatning qimmatini yanada oshadi.

Demak, lingvistik lugʻatlarning obʼekti soʻz va ibora boʻlib, ularda soʻz, uning maʼnosi, grammatik, uslubiy belgilari va boshqa xususiyatlari haqida maʼlumot beriladi. Lugʻatlarning bu turining soʻzligi barcha soʻz turkumiga oid soʻzlardan boʻladi. Ensiklopedik lugʻatlarda soʻz emas, balki ular bildirgan narsalar, tarixiy voqealar, tabiiy va ijtimoiy hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida maʼlumot beriladi. Lingvistik lugʻatlarda barcha soʻz turkumlariga oid

soʻzlar berilsa, ensiklopedik lugʻatlarda faqat otlar (terminlar, asosan atoqli otlar) beriladi. Bunday otlarning koʻpi lingvistik lugʻatlarda berilmaydi.

Ensiklopedik lugʻat bilan lingvistik lugʻatda berilgan maʼlumotlarni qiyoslash orqali ular orasidagi farqni koʻrish mumkin. Masalan:

ARAVAK – burunga taqiladigan bejirim zirak, baʼzan unga qimmatbaho toshlardan koʻz ham qoʻyiladi. Fargʻona vodiysida *aravak* yoki *arabak*, Toshkentda *buloqi*, Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida *latva* deyiladi. («Oʻzbekiston ensiklopediyasi», 1 tom, 429-bet)

ARAVAK dial. Buloqi. («Oʻzbek tilining izohli lugʻati», 1-tom, -M., 1981, 51-bet)

Yana: ABRI BAHOR (fors-tojik. Bahor buluti)- 1. (Oʻzbek badiiy kashtachiligida oʻsimliksimon shoxchalari har xil rangli chizmalardan iborat bezak. 2. Muqovasozlikda kitob muqovasining ichki sahifasiga solingan bulutsimon gul. («Oʻzbekiston ensiklopediyasi», 1-t.T.1971, 48-bet).

ABR (f-t) esk. kt. ayn. bulut. I. Abri nayson-bahorgi yomgʻir buluti. Abri navbahor-erta bahor buluti. Chun abri navbahor-xuddi erta bahor bulutidek. Zor-zor chun abri navbahor yigʻlab, Kelajakning balki shoiridir, Balki lyumpen-proletariat ushbu gʻazalni aytay. (Gʻ.Gʻ.)

Ensiklopedik lugʻatda soʻzga hodisa sifatida taʼrif beriladi. Lingvistik lugʻatda esa soʻzning maʼnolari, uning grammatik, uslubiy va boshqa xususiyatlari yoritiladi.

Lingvistik lugʻatlar yaratilishida turli maqsadlarning qoʻyilishi ularning turlarini belgilaydi.

Hajm nuqtai nazardan lugʻt tiplari. Bunday lugʻatlar ham ikki tipga boʻlinadi:

Umumiy va maxsus lugʻatlar. Lugʻatlarning bu tiplarida soʻzligining biror sohaga oid soʻzlar bilan, adabiy til lugʻat tarkibining maʼlum qatlami bilan chegaralanganligi yoki chegaralanmaganligi hisobga olinadi.

Umumiy lugʻatlar soʻzligida adabiy tilning barcha sohasiga, barcha qatlamiga oid soʻzlar aks etadi. Bunday lugʻatlar kuzatilgan maqsadga koʻra nomlanadi. Masalan: «Ruscha-oʻzbekcha lugʻat», «Oʻzbek tilining izohli lugʻati», «Imlo lugʻat» kabi.

Maxsus lugʻatlarning soʻzligi biror sohaga yoki maʼlum qatlamga oid soʻzlar bilan chegaralangan boʻladi. Bunday lugʻat nomlari bir soha bilan chegaralanganlikni aks ettiradi. Masalan: «Terminologik lugʻat», «Sinonimlar lugʻati», «Dialektologik lugʻat» kabi.

Toʻplab tartibga solingan lugʻaviy birliklarning va ularga berilgan taʼrif-tavsifning maʼlum bir tildan yoki boshqa-boshqa tillardan boʻlishiga koʻra lugʻatlar ikkiga boʻlinadi: 1) tarjima lugʻatlari. 2) oʻz tilli lugʻatlari yoki bir tilli lugʻatlar.

Oʻzbek leksikografiyasida shu vaqtgacha asosiy oʻrinni tarjima lugʻatlari egallab keldi. Tarjima lugʻatida bir tilning lugʻat boyligiga boshqa bir tildan muqobil qidiriladi, tarjima qilish yoʻli koʻrsatiladi. Lugʻaviy maʼnoning oʻzi esa koʻpincha taʼriflanmay qolaveradi. Tarjima lugʻatlariga namuna sifatida besh jildli ruscha-oʻzbekcha lugʻatni (OʻzFAN, Toshkent, 1950-55 yillar),

Ya.R.Benyaminov, T.Z.Mirsoatov: «Nemischa-o'zbekcha lug'at» (Toshkent, 1964); J.B.Bo'ronov, X.R.Rahmonberdiev, X.S.Barnoxo'jaeva, Ye.A.Anisimov: «Inglizcha-o'zbekcha lug'at» (Toshkent, 1968); T.Aliqulov, D.Bozorova: «Fransuzcha-o'zbekcha lug'at» (Toshkent, 1973) va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Tarjima lug'atlari ikki tilli yoki ko'p tilli bo'lishi mumkin. Ko'p tilli lug'atlarda bir tilning lug'aviy birligi ikki yoki undan ortiq tilga tarjima qilib beriladi. Bunday lug'atlar juda kam. Tarjima lug'atlarning asosiy qismini ikki tilli lug'atlar tashkil etadi.

Tarjima lug'atlar boshqa til lug'at boyligini o'rganish, o'zlashtirishda qo'l keladi.

Tarjima lug'atlar qanday lug'aviy birliklarni qayd etishiga ko'ra uch turli bo'ladi: 1) leksik birliklar tarjima lug'ati 2) frazeologik birliklar tarjima lug'ati 3) har ikkala tip lug'aviy birlikni qamrab olgan tarjima lug'ati.

Leksik birliklar tarjima lug'atiga terminologik tarjima lug'atlari kiradi.

Frazeologik birliklar tarjima lug'atiga M. Sodiqovanning «Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'ati» (Toshkent, 1972) namuna bo'laoladi.

Lug'at boyligini umuman qayd etish maqsad qilingan lug'atlarda so'zlar bilan birga iboralar ham beriladi.

Tarjima lug'atlarining umumiy va maxsus tiplari bo'ladi. Yuqorida ko'rib o'tilgan tarjima lug'atlari umumiy tipdagi lug'atlardir. Maxsus tipdagi lug'atlarga A.P.Hojievning «O'zbek tilining lingvistik terminlari izohli lug'ati» (Toshkent, 1985), M.D.Yagudaev, R.X.Mallinlarning: «Ruscha-o'zbekcha fizik terminlar lug'ati» (Toshkent, 1950), N.T.Hotamovning: «Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lug'at»i (Toshkent, 1960) va boshqalar misol bo'laoladi.

O'z tilli lug'atlar (bir tilli lug'atlar)ning so'zligi va undagi so'zlarga berilgan ta'rif-tavsiflar o'z til (bir til) materialidan bo'ladi. Ma'lum bir maqsadlarga ko'ra tuzilgan bunday lug'atlarning quyidagi turlari mavjud: 1) izohli lug'at, 2) imlo lug'ati, 3) orfoepik lug'at (talaffuz lug'at), 4) morfem lug'at, 5) chastotali lug'at, 6) ters lug'at, 7) o'zlashma so'zlar lug'ati, 8) frazeologik lug'at, 9) sinonimlar lug'ati, 10) dialektal lug'at, 11) terminologik lug'at.

Izohli lug'at so'zlikdagi so'zning ma'nolarini va u qatnashgan turg'un birikmalarining ma'nolarini izohlab, grammatik xususiyatlarini yoritib beruvchi lingvistik lug'atdir.

Izohli lug'atda so'zlikdagi har bir so'z alohida lug'at maqolasini tashkil qiladi va uning grammatik, fonetik tavsifi beriladi. Keyin arab raqami tartibida har bir lug'aviy ma'nosi izohlanadi va adabiyotlardan olingan misollar bilan mustahkamlanadi. Agar so'z ko'p ma'noli bo'lsa, uning barcha ma'nolari belgilanadi va har bir ma'nosi izohlanadi. Masalan, qisqa so'zining maqolasi quyidagichadir:

Qisqa sft.1. Uzunligi me'yoridan kam.

Eng qisqa masofa to'g'ri chiziqdır. (geometriya)

2. Davomiyligi me'yoridan kam. Uzun arqon, qisqa gap yaxshi. (maqol)

Aqli qisqa. Chuqur mulohaza yurita bilmaydigan.

Qo'li qisqa. Erishish imkoniga ega bo'lmagan.

Izohli lug'at til haqidagi bilim yuksalgan davrda yaratiladi. O'zbek lug'atchiligi tarixida bunday lug'at Z.M.Ma'rufov muharrirligida 1981 yilda nashr etilgan bo'lib, unda 60 ming so'zga izoh berilgan.

Imlo lug'ati amaliy maqsadda tuziladi. Bu turdagi lug'atga S.Ibrohimov, E.Begmatov va A.Ahmedovalarning «O'zbek tilining imlo lug'ati» (T., «Fan», 1976)ni ko'rsatish mumkin.

Orfoepik lug'atda so'zlarning adabiy talaffuzi qayd etiladi. M.Sodiqova va U.Usmonovlarning «O'zbek tilining orfoepik lug'ati» (T., «O'qituvchi», 1977) bu borada qilingan ilk ishlardan biridir.

Morfem lug'atlar lingvistik maqsadlarda tuziladi. Bu turdagi lug'at birinchi marta A.G'.G'ulomov, A.N.Tixonov, R.Q.Qo'ng'urovlar tomonidan tuzilgan. («O'zbek tilining morfem lug'ati», T., «O'qituvchi», 1977)

Chastotali lug'at so'zlarning qo'llanish miqdori va foyizi haqida ma'lumot beradi. I.A. Kissenning «Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского языка»(T., 1972) lug'ati bu turga misol bo'ladi..

Ters lug'atda so'zlar oxir (teskari) tomondan bo'lgan alifbo tartibiga ko'ra joylashtiriladi. Uning «ters lug'at» deb atalishining sababi ham shunda. Bu turdagi lug'at R.Qo'ng'urov va A.Tixonovlar tomonidan tuzilib, 1969 yili Samarqandda «O'zbek tilining chappa lug'ati» nomi bilan nashr etilgan.

O'zlashma so'zlar lug'atining so'zligi o'zga tillardan o'zlashgan so'zlardan tuziladi va so'zlarga izoh beriladi. Bu turdagi lug'atga O.Usmon va R.Doniyorovlarning «Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati»ni (T., «Fan», 1965) ko'rsatish mumkin.

Frazeologik lug'atning so'zligi ibora bo'lib, u frazeologik birliklarni tavsiflaydi. Bu turdagi lug'atga Sh.Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (T., 1978) kiradi.

Bundan tashqari A.Hojievning «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» (T., 1974), «O'zbek xalq shevalari lug'ati» (T., 1971), X.Yu.Bekmuhammedovning «Tarix terminlari izohli lug'ati» (T., 1978), S.Qoraevning toponimikaga oid lug'ati (Geografik nomlar ma'nosi, T., 1978) singari ko'plab lug'atlar bor.

Umuman lug'at turlari xilma-xil bo'lib, bu o'rinda ba'zilar haqida to'xtalib o'tdik.

Juda katta madaniy boylik hisoblangan lug'atlar boshqa tillarni o'rganishda, ona tilining imkoniyatlarini to'laroq egallashda, savodxonlikni oshirishda, nutq madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillarida lug'atchilik va lug'at tuzish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Bu respublikamizning jahon arenasiga chiqishi bilan bog'liq holda til o'rganishda ayniqsa katta yordam bermoqda.

ADABIYOTLAR

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм.Т, Фан, 1966.
2. Шоабдурахмонов ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм.Т, Ўқитувчи, 1980.
- 3.Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т, “Ўзбекистон”, 1992.
- 4.Раҳматуллаев Ш.Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Т.,1974.
- 5.Ўзбек тилининг изоҳли луғати.1- 2 томлар.М.,1981

О‘тилган mavzu bo‘yicha savollar

1. Lug‘atlar tuzilish maqsadiga ko‘ra nechta turga bo‘linadi?
2. lingvistik lug‘atlarning so‘zligi nimadan iborat?
3. Ensiklopedik lugatlarda nimalar haqida ma’lumot beriladi?
4. Umumiy va maxsus lug‘atlar haqida nimalarni bilasiz?

Tayanch so‘zlar va iboralar

Ensiklopedik lug‘atlar, lingvistik lug‘atlar, umumiy lug‘atlar va xususiy lug‘atlar, tarjima lug‘atlar va o‘z tilli lug‘atlar,izohli lug‘at,imlo lug‘atti,orfoepik lugat,morfem lug‘at,chstotali lug‘at..

MUNDARIJA

BIRINCHI MA'RUZA	
«O'ZBEK TILI» fani, uning o'rganish obyekti va bo'limlari ...	3
IKKINCHI MA'RUZA	
Fonetika va fonologiya.....	10
UCHINCHI MA'RUZA	
Fonetika.Bog'in va urg'u.....	18
TO'RTINCHI MA'RUZA	
Orfoepiya , grafika va orfoepiya.....	23
BESHINCHI MA'RUZA	
Leksikologiya va semasiologiya.So'zning leksik ma'nosi.So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari ...	30
OLTINCHI MA'RUZA	
Leksikologiya.O'zbek tili dagi o'z va o'zlashgan qatlam	34
YETTINCHI MA'RUZA	
Frazeologiya.....	41
SAKKIZINCHI MA'RUZA	
Leksikografiya	45

NURIDDIN BEGALIEV
O‘ZBEK TILI (Ma’ruzalar matni)

Tahrir-nashriyot bo‘limi

Texnik muharrir —

Matn muharriri —

SamDCHTI nashriyot-matbaa markazi:

Samarqand sh., Oxunboboev ko‘chasi, 93.

Bosishga ruxsat etilgan: 03.06.2003 y.

Adadi 150 nusxa. Qog‘oz bichimi A4.

Buyurtma .

Times garniturasini.

«Selbis» firmasi dastgohida bosib chiqarilgan.

Samarqand sh., Sh.Rashidov ko‘chasi, 68.

